



PARLAMENTDA:

“PREZIDENT MAS’ULIYATGA CHAQIRMOQDA SIYOSIY PARTIYALAR VA DEPUTATLARNI BU OGOLLIK QO’NG’IROG’I”



MUNOSABAT

Pirovard
maqsad –

**BUXOROLIKLAR
FAROVONLIGINI
OSHIRISH**

4

YOSHLAR PARLAMENTI

Olimlar, fidoyi ustozlar, tinib-
tinchimas senatorlari

**XALQ SUYADIGAN
DEPUTATLAR
SAYLANDI**

8

DOLZARB MAVZU

DAVLAT XORIJ
TAJIBASINI
ORGANYAPTI,
ammo biz – fuqarolar bu
amaliyotga tayyormizmi?

12

NUQTAYI-NAZAR

JANOB HOKIM,
bu yolg’on xabar
edi deng!



ISSN 2010-7714

O'ZBEKISTON – MISR

HAMKORLIGIDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisining taklifiga binoan 20 – 21-fevral kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

O'zbekiston va Misri, garchi oradagi masofa uzoq bo'sa-da, tarixiy-madaniy mustaraklik, an'anaviy do'stlik va yaqin hamkorlik birlashtirib turadi. Davlatimiz rahbarining ushbu mamlakatga ilk tashrifini ana shu azaliy aloqalarni bugungi zamон tabalardan kelib chiqqan holda, yangi asosda ravnaq toptirishga xizmat qilishi bilan ahaniyatlidir.

Prezidentimizning ushbu tarixiy tashrifidan katta natijalar kutilayти. Misr biz uchun butun Afrika mintaqasi davlatlarini bog'lovchi darvoza hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu mamlakat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanan bo'yicha boy tajribaga ega.

O'zbekiston va Misr o'z mintaqalarida faol iqtisodiy savdo, investitsiyaviy va logistika muhitini yaratmoqda. Shu salohiyat birlashtirilsa ko'plab yangi bozorlar paydo bo'ladi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 21-fevral kuni o'tkazildi.

Qohiradagi "Al-Ittihodiya" saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni tantanali kutib olish marosimi bo'lib o'tdi.

Saroy oldidagi maydonda oliv martabali mehnom sharafiga faxriy qorovul saf tortdi.

Misr Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi davlatimiz rahbarini samimiy qarshi olib, maxsus shohsupaga taklif etdi.

Harbiy orkesti ijrosida ikki mamlakat davlat mahiyatlarini yangradi. So'ng davlat rahbarlarini faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

"Al-Ittihodiya" saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisining muzokaralarini bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston – Misr hamkorligini yanada rivojlantrish masalalarini atrofiali muhokama qilib, o'zaro munosabatlarni keng qamrovli sherlik bilasragasi olib chiqishga kelishib oldilar.

Siyosat, xavfsizlik, savdo va samoat kooperatsiyasi sohalariagi hamkorlikni tubdan kengaytirish hamda madaniy-gumanitar va ta'lim aloqalarini mustahkamlash masalalari muzokaralarining asosiy mavzulari bo'ldi.

Prezidentlar Misrning "Nazar-2030" strategik rejasini va Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar bir-biriga hamohang ekanini qayd etdilar.

Davlatimiz rahbari Misr Prezidentini Iqlim o'zgarishi bo'yicha SOR-27 xalqaro summati muvaffaqiyatlari o'tkazilgani bilan tabrikadi.

Muzokaralar chog'ida yetakchilar ikki tomonlama munosabatlar jalal rivojlanib borayotgani, keng siyosiy mulqot faollashgani, BMT, IHT, SHI va Qo'shilmaslik harakati kabi xalqaro tashkilotlar doirasida o'zaro ko'maklashilayotgani, parlamentlararo aloqalar jadallashganini mammuniyat bilan qayd etdilar.

Tomonlar korrupsiyaga, xavfsizlik sohasidagi zamoniaviy xatar va tahdidlarga qarshi kurashishda tajriba almashtishdan, Afg'onistoni barqarorlashtirish va qayta tiklash bo'yicha xalqaro tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashdan manfaatdor ekanliklarini bildirdilar.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantrishga alohida e'tibor qaratildi. Prezidentlar davlatimiz rahbarining tashrifi arafasida o'tgan O'zbekiston – Misr ishbilarmonlik tadbirlerining yakunlarini yuksak baholadilar.

O'zaro investitsiyalar jalb qilish uchun quyl sharoqtar yaratishga kelishib o'lindi. Ikki mamlakat iqtisodiyotlari bir-birini to'dirib turuvchi xususiyatga ega ekanidan kelib chiqib, beshta aniq yo'nalishda – gaz-kimyo, to'qimachilik, elektronika, zargarlik va farmatsiyika tarmoqlarida hamkorlik qilish choralarini belgilab o'lindi.

Samoat kooperatsiyasini rivojlantrish va yuqori rentabelli qo'shma ishlab chiqarishlar tashkil etish maqsadida O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan foydalanan taklif qilindi.

Energetika sohasida qo'shma loyihamoni amalga oshirish, shuningdek, O'zbekiston va Misri bog'lab turgan transport yo'laklarini rivojlantrish choralarini hami muhokama qilindi.

Madaniy-gumanitar va diniy aloqalarni rivojlantrish muhimligi qayd etildi. Arab tili mutaxassislarini tayorlash sohasidagi hamkorlikni rivojlantrish yuzasidan kelishuvga erishildi. O'zbekiston Prezidenti 2024-yilda Arabshunoslik global forumini birlgilikda tashkil etish tashhabbusini ilgari surdi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzlar masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Uchrashuv ochiq, samimiy va do'stona muhitda o'tdi. Yakunda Shavkat Mirziyoyev Abdulfattoh

as-Sisini mamlakatimiza tashrif bilan kelishni taklif etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Misr Arab Respublikasiga tashrifi doirasida oly darajadagi muzokaralar yakuni bo'yicha hujjatlar imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Daylat rahbarlari siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, madaniyati va ta'lim sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan Qo'shma bayonotni qabul qildilar.

Prezidentlар huzurida qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi. Ular ikki mamlakat tashqi ishlari vazirliklari, O'zbekiston Investitsiyalar, samoat va savdo vazirligi va Misr Investitsiyalar bo'yicha bosh boshqarmasi o'tsasidagi, o'simliklari karantini va himoyasi, jamoat sog'iqliqi saqlash tizimini tashkil etish, investitsiyalarini jalb qilish va ikki tomonlama investitsiyaviy munosabatlarni mustahkamlash, texnik jihatdan tartibga solish, tarraqiyot masalalarida tajriba almashtish kabi yo'nalishlardagi hamkorlikni rivojlantrishni nazarat tutadi.

Shuningdek, O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi va Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Sharqshunoslik instituti tomonidan Misr Milliy kutubxonasi va arxivni bilan o'zaro anglashuv memorandumlari imzolandi.

Oliy darajadagi muzokaralaridan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi ommaviy axborot vositalari vakillariga bayonot berdilar.

Davlatimiz rahbari ko'hma va betakror Misr zamindagi O'zbekiston delegatsiyasiga ko'rsatilgan samimiy qabul va mehmondo'stlik uchun churur minnatdorlik bildirdi. Misr rahbari va xalqining ulkan yutuqlari O'zbekistoni xursand qilayotganini aytdi.

Bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida yetakchilar ikki mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar – Yangi O'zbekiston strategiyasi va Misrning "Yangi Respublika" dasturi bir-biriga hamohang ekanini, yangi ish o'rinnarini yaratish va kambag'allikni qisqartirish, abolini ijtimoiy himoya qilish va shaharlarin infratuzilmasini rivojlantrish borasidagi ishlar uyg'uni to'g'risida yakdil fikr bildirdilar.

– Biz birlgilikda nafaqat ikki mamlakat o'rtsida, balki strategik jihatdan juda muhim bo'lgan mintaqalarimiz orasida



ham mustahkam hamkorlik ko'prigini buniyod etishni maqsad qilganlari, dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Uchrashuvda davlat rahbarlari siyosiy maslahatlashuvlarni faollashtirish, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-logistika, madaniy-gumanitar va xavfsizlik sohalardagi ko'p qirrali aloqalarni kengaytirish masalalarini atrofieha ko'rib chiqdilar.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikda mavjud ulkan imkoniyatlar va salohiyat to'liq ishga solinmayotgan alohida qayd etildi, shu munosabat bilan savdoni ko'paytirish uchun amaliy mexanizmlar va samarali choralarini amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Birlgilikda "yashil" energetika loyihamoni amalga oshirish, ikki davlatni bog'lovchi maqbul transport yo'nalishlarini ishlab chiqish, erkin iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan foydalanan, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lg'a qo'yishga kelishib o'lindi.

Davlatimiz rahbari yana bir bor Misr kompaniyalari mamlakatimizda o'zaro manfaati loyihalarni amalga oshirishi uchun barcha sharoitlar yaratilishini bildirdi.

Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida faol o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyotini davom ettirishga ahdashib o'lindi. Yetakchilar Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va ushbu mamlakat xalqiga ko'maklashish

bo'yicha sa'y-harakatlarni susaytirmslik zarurligini ta'kidladilar.

Kalqlarimiz umumiy din, o'xshash an'ana va urf-odatlarga asoslangan azaliy do'stlik rishtalari bog'lab turadi. Shu munosabat bilan ilm-fai va ta'lim almashinuvlari, umumiy tarixiy va madaniy merosimizni birlgilikda o'rganish, yoshlar o'tsasidagi va ijodiy aloqalarni kuchaytirish masalalari ikki tomonlama madaniy-gumanitar hamkorlik kun tertihibi alohida o'r'in egallashi ta'kidlandi.

Shu ma'noda, ikki mamlakat shoir va adiblari, san'atkolarini va madaniyat arbollarining o'zaro tashriflarini tashkil etishga tayyorlik bildirildi.

Prezidentimiz buyuk alloma bobomiz Ahmad Farg'oniyning ibratli hayot yo'li va ilmiy merosini chuquq o'rganish va yoshlar orasida targ'ib qilish maqsadida ikki mamlakat olimlarining do'stlik ilmiy jamiyatini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari nutqining yakunida O'zbekiston – Misr sammitining natijalari ikki tomonlama munosabatlarni do'st xalqlarimiz farovonligi yo'lida sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishi va ularga uzoq muddatli ruh bag'ishlashiga qat'iy ishonch bildirdi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Misr Arab Respublikasiga rasmiy tashrifi yakunlandi.

PREZIDENT SIYOSIY PARTIYALAR VA DEPUTATLARNI MAS'ULIYATGA CHAQIRMOQDA

BU OGOLLIK QO'NG'IROG'I

"Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasingning navbatdag'i yig'ilishida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga tashrifi yakunlari tahlil etilib, bu galgi safar davomida ham partiyalar va deputatlarning Yangi O'zbekiston islohotlaridagi ishtiroi va mas'uliyatini yanada oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgani ta'kidlandi.



— Davlat rahbari xalqimiz juda ham jasoratli, mehnatkash, vatandarvar ekanini, lekin mahalliy rahbarlar ham fuqarolarning talab va istaklarini bajarishda ana shunday matonat, mas'uliyat va harakatchanlik bilan javob bera oladilarini, degan savolni o'rta ga tashladilar,

— dedi fraksiya rahbari Alisher Qodirov. — Shundan kelib chiqib, agar xalqimiz mansabdorlardan rozi bo'lmasa, davlat ham bunday boshliqlardan hech qachon rozi bo'lmaydi...

Prezidentning bunday xulosasi har birimizga taalluqli bo'lib, bundan tegishli xulosalar chiqarishimiz zarur.

Saylovchini rozi qilish, uning hayotiy muammolarini hal etishga ko'maklashish, ijtimoiy muammolar paydo bo'lmasi dan qularning oldini olish, ayniqsa, ta'lif-tarbiya tizimida yo'l qo'yilgan xatolar natijasini bartaraf etish, tilimiz, urf-edat va qadriyatlarimizni mustahkamlash o'rniiga befarqlikka qo'l ursak, mayjud muammolar bilan hazrati saylovchini yakkama-yakka qoldirsak, bunday deputatdan xalq norozi bo'laveradi. Shu ma'noda, Davlat rahbarining siyosiy partiyalar va deputatlarga munosabatini ogohlilikka da'vat etuvchi qo'ng'irog' sifatida qabul qilishimiz kerak!

Prezident Buxoroga safarlari chog'ida ham qonunlarga munosabat masalasida juda katta muammolar mayjudligini ta'kidlilar. U kishining fikricha, ayrimlar qonunlarning ustuvor ekanini to'la his etmayapti. Odamlarni jazolab emas, tushuntirib berish orgali erishishimiz kerak bunga. Ayniqsa, bunda qonun ustuvor, jazo muqarrar bo'lishiga

erishishimiz lozim. Ya'ni, qonunlarga qanday amal qilinsa, jamiyatdag'i intizom, tartib ham shunga yarasha bo'ladi. Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlanitirish, ishbilarmonlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil va samarali islohotlar amalga oshirildi, oshirilmoqda. Lekin endi oyoqqa turib olgan tadbirkorlar ham xalqimizning yaxshi yashashiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishlari lozim. Yangi ish o'rinnarini yaratish, ishehilariga munosib haq to'lash, ijtimoiy himoya borasidagi tashabbuslarni o'z zimmalariga olishlari kerak. Prezident Bahouddin Naqshband maqbarasi ziyorati hamda Mir Arab olyi madrasasiga borgan chog'larida esa hamma sohalar qatori diniy sohada ham o'zgarishlar yuz berayotganini, ber nechta ilmiy markazlar tashkil etilib, yangi ochilgan oliygochlardan ulamolar, xususan, har tonmlara bilimli yoshshlar yetishib chiqayotganiga urg'u berdilar. Ammo Davlat rahbari bu boradagi shart-sharoitlarga qaramay, hamon oramizda adashayotganlar borligini afsus bilan ta'kidlilar.

Shundan kelib chiqib, Prezident ayollarning farzandlar tarbiyasidagi roli masalasiga to'xtaldilar. Agar oilada, jamiyatda, farzandlar ta'lif-tarbiyasida onalarning o'rnni yanada mustahkamlamoqchi bo'lsak, avvalo ularga oilada hamda ish joyida munosib sharoitorlar yaratib berishimiz lozim. Bugun dunyodagi kutilmagan tezkor o'zgarishlar, ijtsisodiyotimizning so'nggi yillardagi rivojlanish jarayoni bizni ertaga nimalar kutayotganini avvaldan taxmin qilishi taqozo etmoqda. Masalan, yaqin kelajakda eksport

qilinayotgan tovarlarimizga xalqaro iste'mol bozorlarida "bu mahsulotlarni ishlab chiqarishda yashil energetikadan foydalilaniganmi?" Aks holda sobit olmaymiz", degan mazmundagi savollarni ham o'rta ga qo'yishlari ehtimoldan xoli emas. Shu jihatdan, bugungu shunday talablariga tayyorgarlik ko'rishimiz lozim. Xususan, yurtimizda yashil ijtsisodiyotni rivojlanitirish haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Shundan so'ng deputatlar kun tartibiga kiritilgan qonun loyihalari muhokamasiga kirishishdi.

Dastlab "Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar tashkil etilganchi munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining

ayrim qonun hujjalariга o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Ushbu masalada so'zga chiqqan Tursinov Muratovanning ta'kidlashicha, mamlakatimizda so'nggi yillarda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonechli himoya qilishning institutional asoslarini tubdan takomillashtirish, bolalar orasida nazoratsizlik va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish, nogironligi bo'lgan va ota-oni qaramog'idan mahrum bo'yicha bolalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi faoliyati isloh etilib, Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya qayta tashkil etildi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariга mazkur komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartishlar

normalar ustun ekanini, lekin bugungi geosiyosiy silkinishlar davrida mamlakatimiz uchun asosiy va yagona maqsad shubhasiz xalqimiz manfaatlarini ustuvor bo'lishi ekanini ta'kidladi. Yig'ilishda fraksiya a'zolari ham Prezidentning Buxoro viloyatiga tashrifi haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Shundan so'ng deputatlar kun tartibiga kiritilgan qonun loyihalari muhokamasiga kirishishdi. Dastlab "Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar tashkil etilganchi munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariга o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ushbu masalada so'zga chiqqan Tursinov Muratovanning ta'kidlashicha, mamlakatimizda so'nggi yillarda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonechli himoya qilishning institutional asoslarini tubdan takomillashtirish, bolalar

orasida nazoratsizlik va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish, nogironligi bo'lgan va ota-oni qaramog'idan mahrum bo'yicha bolalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi faoliyati isloh etilib, Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya qayta tashkil etildi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariга mazkur komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash, samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartishlar

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish»
muxbiri



Prezidentimiz
Shavkat Mirziyoyevning
Buxoroga tashriflari
davomida hududlarni
rivojlanirish
bo'yicha Buxoro
ahlining ayni dilidagi
taklif va tashabbuslar
ilgari surildi, deyish
mumkin.
Davlatimiz rahbari
Bahouddin
Naqshband
maqbarasini ziyorat
qilar ekanlar,
Buxoroda yangi
marralarni belgilash,
odamlarning
birini ikki qilish
uchun kelganlarini
ta'kidladilar.

PIROVARD MAQSAD – BUXOROLIKLAR FAROVONLIGINI OSHIRISH

Shuni alohida qayd etish joizki, keyingi yillarda Buxoro mamlakatimizning har tomonlama rivojlajangan hududlaridan biriga aylandi. Viloyatning iqtisodiy salohiyati oshib, odamlarning yashash sharoiti tubdan o'zgardi. Ayniqsa, hududda milliy iqtisodiyotimizda yetakchi tarmoqqa yanayotgan sayyoqlik yo'nalishida katta imkoniyatlar ochildi. Birgina "Buxoroi sharif" nomining o'zi, ajodalrimizdan qolgan mingdan ortiq tarixiy obidalan dunyo ziyyoratchilar va sayyoohlari e'tirofini qozonmoqda. Jumladan, o'tgan yili 89 ta katta-kichik mehmonxonalar ishga tushirilgach, ularning soni 485 taga yetdi. Olib borilgan targ'ibot ishlari natijasida sayyoohlari soni 3,5 mln. nafardan oshib, 2021-yilga nisbatan o'sish 159 foizni tashkil qildi. Xizmatlar eksporti hajmi 138,2 mln. dollarga yetdi. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" va "Moziya sayohat" dasturlari doirasida ichki turizm rivojiga ham alohida e'tibor qaratildi. Xorijiy sayyoohlari oqimini oshirish, sayyoohlari

“ 2022-YILI 89 TA
 KATTA-KICHIK
 MEHMONXONALAR
 ISHGA TUSHIRILGACH
 ULARNING SONI 485
 TAGA YETOL OLIB
 BORILGAN TARG'IBOT
 ISHLARI NATIJASIDA
 SAYYODHLAR SONI 3,5
 MLN. NAFARDAN OSIB,
 2021-YILGA NISBATAN
 O'SISH 159 FOIZNI
 TASHKIL QILDIDI.

uchun qulay sharoit yaratish maqsadida 2022-yilning iyun oyida ilk bora "Turkish Airlines" kompaniyasi tomonidan Istanbul-Buxoro-Istanbul yo'nalishida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovalr yo'lga qo'yildi. Vobkent tumanidagi "Shirin" qishlog'iда "Shirin etnoturizm" maskani tashkil etish uchun 2,5 km asosiy yo'l to'la va 2,3 km ichki yo'l joriy ta'mirlandi. Shuningdek, ushbu qishloqda bitta "Etnoturizm" markazi va ekoturizm maskani tashkil qilindi. 13 ta o'tov, 3 ta Wi-Fi nuqtasi, 6 ta hunarmandchilik ustaxonasini va 3 ta milliy choyxona faoliyati yo'lga qo'yilib, 5

ta oilaviy mehmon uylarida sayyoohlarni qabul qilish boshlandi.

Shu orinda hududiy investitsiya dasturlari hamda tashhabbuskor tadbirkorlar tomonidan turizm sohasida umumiy qiyomi 318,9 mlrd. so'mlik 19 ta loyiha amalga oshirilib, 205 ta yangi ish o'rni yaratilganini ta'kidlash lozim.

Viloyatda sanoatni rivojlantrish va energiya ta'minotini yaxshilash masalalari doirasida 6 ta yangi ipakchilik, to'qimachilik, parrandachilik, meva-sabzavotni qayta ishslash va turizm tarmoqlariga ixtisoslashgan majmualar ishga tushirildi. Buning natijasida 3 ming 500 ta yangi ish o'rni ochildi va ishlab chiqarishga 850 mln. so'm sarmoq kiritildi. Bugun energiya ta'minotini yaxshilash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilib, qo'shimcha quvvatlar ishga tushirilyapti. Xususan, Buxoroning issiq iqlimidan foydalananib, 740 ta korxonada 22 Megavattli, ijtimoiy obyektlar va ko'p qavatlari uylar ustida 11 Megavattli quyosh panellari o'rnatish

rejalashtirildi. 2023-yilda Buxoroni "aholisi to'liq ish bilan ta'minlangan hudud"ga aylantirish maqsadida O'zbekiston Prezidentining "Buxoro viloyatida aholi bandligini ta'minlash va daromadini ko'paytirish, shuningdek, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan samarali foydalanshga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu qaror ijrosi ta'minlangach, joriy yilda jami 250 mingta shundan 121,2 mingta doimiy va 128,8 mingta mavsumiy ishlarda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha aniq manzilli tadbirlar belgilandi.

Albatta, Prezidentimiz tomonidan viloyatimizda amalga oshirilishi rejalashtirilishi ishlarda partiya vakkillari, deputatlarimiz ham birdek mas'ul. Shundan kelib chiqib, xalqimiz manfaati yo'lidagi vazifalar ijrosini qat'iy nazoratga olishda bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Maxsud MUHAMMEDOV,
partiyaning Buxoro viloyati
Kengashi raisi

Tanlov

T o'g'ri, buni unchalar ko'zga tashlanmaydigan axborot yoki xabar sifatida qabul qilyapmiz. Kecha ijtimoiy tarmoqlarda Yoshlar siyosati va sport vazirligini hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan "Yosh kitobxon" tanlovinining final bosqichiga start berilgani, 3 ta yosh tofisi bo'yicha 1-o'rinn sohiblari prezident sovg'asi — "Spark" avtomobili bilan taqdirlanishi haqidagi xabar tarqaldi. Bundan tashqari, 2-o'rinn sohiblariiga 50 mln so'm, 3-o'rinn sohiblariiga esa 30 mln so'm mukofot berilishi, qolgan barcha finalchilar esa 10 mln so'mdan taqdirlanishi ta'kidlandi. Ammo gazetalarimiz, ijtimoiy tarmoqlar bu xabarga unchalik e'tibor qaratmayotganlari bor gap. Faqat o'zini ziyyoli bilgan ayrim

blogerlargina ushbu voqeanning ahamiyatiga katta e'tibor qaratdilar. Masalan, taniqli bloger Zafarbek Solijonov mana shu tanlov kitobxonlar uchun yo'lga qo'yilgan eng zo'r tanlovlardan biri bo'ldi, deb yozdi. Uning fikricha, kitob, sabr, mehnat, qunt va yakunda munosib rag'bat. Bu esa kitob o'qigan odam hech qachon kam bo'limasligining dalilidir. Ammo tan olaylik 2017-yildan beri o'tkazilayotgan ushbu tadbir orgali jami 3,6 milliondan ortiq yoshlar qamrab olinibdi. Bu gazeta, jurnal va kitoblar janozasini o'qishga shoshilayotgan ayrim kimsalar yuziga urilgan tarsakiga o'xshaydi. Bas shunday ekan, O'zbekistonda yana bir ulkan tadbirga start berildi deb yoza qolaylik...

Ma'murjon YULDOSHEV

“ ”



Bahodir MAMATXONOV,
partiya Markaziy kengashi raisi o'rinosari

Nihoyat tarbiya hayot-mamot masalasi ekanini chuqurroq anglay boshladik. Bunda ota-onaning birlamchi vazifasi farzandiga tarbiya berish ekanı bejiz tilga olinmaydi. To'g'ri, farzandlar tarbiyasiga nafaqat ota-ona, oila, balki butun jamiyat ertangi kuminiz kelajak avlodga qanday ta'limgar tarbiya berganimizga bog'liqdir.

Ma'lumki, sharq dunyosida, ayniqsa, ona zaminimizda yashab, ijod qilgan olimu fuzulalarimiz, ma'rifat va ma'naviyat ahli tomonidan tarbiya haqida tom-tom kitoblar yozilgan, risolalar chop etilgan, bugun ham bu borada yuzlab ilmiy izlanishlar olib borilyapti. Mutasakkir bobolarimizning "Qutadg'u bilig", "Qobusnoma", "Pandnoma", "Axloqi muhsiniy", "Axloqi nosiriy", "Qonuni hikmat", "Odob as-solihin", "Turkiy Guliston yoxud axloq" kabi nodir asarlari ham aslida insonparvarlik, odamlikning buyuk yarunus sifatida haligacha sevib mutolaa qilinmoqda. Ya'ni, bugun otabobolarimizdan qolgan "Niholni boshdan, bolani yoshdan" degan hikmat isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylanganini tan olyapmiz.

Tarbiya va uning millat rivojidagi roli haqida gap ketganida tarix va bugungi kunning ushbu masalada uyg'un ekanini ta'kidlash joiz. Mana bir misol: Amir Temur tarbiyaga qanchalar e'tibor qaratgani, ayniqsa, o'z surriyodilar davomchilar – nabiralar tarbiyasiga davlat ishlardan ortib, vaqt ajratgani tarixidan ma'lum. Zahiriddin Muhammed Boburning esa ta'limgar tarbiya haqida goldirgan boy merosi besh asrki yosh avlod uchun iibrat maktabi bo'lib kelmoqda. Buyuk bobokalonimiz, so'z mulkinining sultoni Mir Alisher Navoiy esa yosh avlodni tarbiyalash-o'qitish ishlarni har qanday tasodifiy kishiga topshirishni keskin qoralab, bolani tarbiyalash va unga jilm berish, uning qobiliyatini o'stirish uchun niyoyat bilimdon va ustta tarbiyachi bo'lishi kerakligini uqtiradi. "Bolaga, kichikligidan boshlab, yoshini hisobga oлган holda axloqiy tarbiya bermoq zarur", – deydi bobomiz.

Taniqli alloma va ta'limgar tarbiya fidoiysi, Abdulla Avloniyoning "Tarbiya bi uchun yo hayot – yo mamot, yo najor – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan gaplari ham hamon o'z dolzarbligini yo'qtogani yo'q. U o'zining "Yashnagan o'lka va axloq" kitobida yozganidek, bolaning sog'lig'i va baxti, avvalo, uning yaxshi tarbiyalanishiga, badanining tozaligiga, e'tiqod hosil qilishiga, yaxshi xulqqa ega bo'lishiga, uni g'ayriaxloqiy xatti-harakatlardan ogohlantirilishiha bog'liq.

Ma'lumki, XXI asrda kelib, globallashuvdan duningda g'oyaviy qarama-qarshiliklar shunchalik keskin tus oldiki, hozirda uning ta'siridan hech bir davlat o'zini to'la himoya qila olmayapti. Eng yomoni, turli mafkuraviy tahdidlarni xalqlarning asrlar davomida shakllangan qadriyatlarini, an'analariga ta'sir o'tkazmasdan qolmayapti. Yanayamaxonlarini tomoni, terrorizm, giyohvandilik, jinojatchilik, diniy ekstremizm va ommaviy madaniyat kabi illatlar borgan sari kuchaymoqda. Mutaxassislarining fikricha, bu bugun dunyoda qarib 2 milliarddan ko'proq yoshlar o'z domiga tortmoqda. Ya'ni, dunyoda notinchlikni keltirib chiqarishdan manfaatdor bo'lgan kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishda yoshlar armiyasi kuchidan foydalanshish harakat qilmoqda va bunga qaysidir ma'noda erishyapti ham. Aholisining 60 foizidan ziyodi yoshlardan iborat O'zbekiston ham afsuski shunday tahdidlardan chetda qolmayapti. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan

Maktab va oliy ta'limgar muassasalarida olib borilgan o'rganishlar soni 1300 tani tashkil qilgan bo'lib, aniqlangan 1355 ta kamchilik va muammolardan 1055 tasi tezkor bartaraf etildi. Ta'limgar sohasi mutasadidilariga chiqarilgan "Deputatlilik so'rov"lari soni esa 362 tani tashkil qildi.

ARBIYA

IT-TA'LIMNING ASOSIDIR

ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", degan gaplari yuqoridaq xulosalar bejiz emasligidan dalolat bermoqda. Donishmandlarimiz aytganidek esa "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtili yashaydi". Davlatimiz rahbarining "Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shilq paydo bo'lishiga mustaqloq yo'li qo'yib bo'lmaydi", degan ta'kidlari ham mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga har qachongidan ko'ra ko'proq qaralayotganini

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2017-yilda maktabgacha ta'limgar qamrovi 27,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yili 37,7 foiz, 2019-yili 52,3 foiz, 2020-yili 60,9 foizga yetdi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida esa kelgusi 5 yilda maktabgacha ta'limgar qamrovini 80 foizga yetkazish rejalashtirildi. 2026-yilga kelib 6 yoshli bolalarni 100 foiz maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish kutilmoqda. Buning uchun esa 7 mingdan ortiq nodavlat maktabgacha ta'limgar muassasalarini

shart-sharoitini yaxshilash shular jumlasidandir. Shu bois, bu sohadagi har bir o'zgarish partiya diqqat markazida turibdi.

"Milliy tiklanish"ning g'oya va maqsadlari asosida esa fraksiyamiz a'zolari tashabbusi bilan qonunchilikka bir qator o'zgartishlar ham taklif qilindi. Xususan, yangilanayotgan Konstitutsiyaning 41-moddasi tahrir qilinib, unda davlat maktabgacha ta'limgar va tarbiyani rivojlanitarishga ko'maklashishi, maktab ishlari, maktabgacha ta'limgar va tarbiya davlat nazoratida bo'lishi, bolalarga inkyuzyiv ta'limgar va tarbiya berilishi kafolatlanishi belgilanmoqda.

Bunga erishish uchun esa "Parlament nazorati" va "Deputatlilik nazorati" institutlaridan samarali foydalanmodqamiz.

O'tgan yili Xalq deputatlari mahalliy Kengashlardagi deputatlilik guruhlari hamda deputatlarimiz bilan birgalikda 1000 ga yoxa maktabgacha ta'limgar tashkilotida o'rganishlar olib bordik. Bu jarayonda 505 ta muammoli masala anqliqanib, ularning 372 tasi joylarning o'zida hal qilindi. Maktab va oliy ta'limgar muassasalarida olib borilgan o'rganishlar soni 1300 tani tashkil qilgan bo'lib, aniqlangan 1355 ta kamchilik va muammolardan 1055 tasi tezkor bartaraf etildi. Ta'limgar sohasi mutasadidilariga chiqarilgan "Deputatlilik so'rov"lari soni esa 362 tani tashkil qildi.

Bugun nafaqat partiyamiz, balki jamiyatimiz shioriga aylananayotgan "Inson o'zgarmasa, jamiyat o'zgarmaydi" g'oyasi ham aynan tarbiya bilan chambarchas bog'liqidir.

Maqsadimiz vatanparvar, yurt taqdiringa befarq bo'lmagan, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qiluvchi, keng tafsakkurli, ma'naviyati yuksak yoshlarning shakllanishiga yordam berish ekan, bunda albatta, ta'limgar asos rolini o'yashni shart. Yusuf Xos Hojib bobomiz ta'kidlaganlaridek, "Tarbiya ta'limgar asosidir".

“ ” 2017-YILDA MAKTABGACHA TA'LIM QAMROVI

**27,7 FOIZNI TASHKIL ETGAN BO'LSA,
2018-YILI 37,7 FOIZ, 2019-YILI 52,3
FOIZ, 2020-YILI 60,9 FOIZGA YETDI.**

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA ESA KELGUSI 5 YILDA
MAKBAGACHA TA'LIM QAMROVINI 80 FOIZGA YETKAZISH REJALASHTIRILDI.

anglatadi, albatta. Qayd etish joizki, bugun yoshlarga munosib ta'limgar tarbiya berish, buning uchun avvalo oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash, maktabgacha va maktab ta'limgar rivojlanitarish, ularni hunarli qilish, bandilgini ta'minlash Yangi O'zbekiston uchun eng ustuvor masalaga aylandi. Ayniqsa, bunda tarbiya o'chog'i hisoblangan maktabgacha ta'limgar tizimini rivojlanitarishga alohida e'tibor qaratilyapti. Bu borada qator qonun, qaror va davlat dasturlari, maktabgacha ta'limgar tizimini 2030-yilgacha rivojlanitarish Konsepsiysi, umuman, so'nggi 5 yilda sohani isloq qilishga qaratilgan 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjalarni qilinib, 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'limgar qamrab olishish jaiboy ko'sratikchilarga erishildi. Natijalar esa YUNISEF kabi xalqaro nufuzli tashkilotlar, dunyoning yetakchi davlatlari tomonidan ham alohida e'tirof etish, maktabgacha ta'limgar muassasalarini tarmog'ini kengaytirish, pedagog va mutaxassislar malakasini oshirish,



So'nggi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'lif bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetishi natijasida bugungi kunda 2 millionga yaqin bola bog'chaga bormoqda. Yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan YUNESKOning Maktabgacha ta'lif bo'yicha Umumjahon anjumanida ham bu islohotlarimiz yuksak e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga yo'lligan Murojaatnomasidan

MUROJAATNOVA

O'ZBEKNING BOLASI O'ZBEK QADRIYATLARI BILAN TARBIYA TOPISHI KERAK

President Murojaatnomasini dunyoning g'oyat murakkab va sinovli kunlarda, ya'ni chuqur iqtisodiya siyosiy inqirozlar, tabibiy bo'hronlar kuzatilib, ziddiyatlardan kuchaygan bir paytda jamiyatni yagona maqsad sari birlashtirishga qaratilgan muhim hujjat sifatida taqdim etildi, deyish mumkin.

Bugunga kelib chindan ham dunyo kutilmagan o'zgarishlar davriga kirdi. Shuning uchun ham har qanday masalaga global miyojsida, mintaqaviy va so'ngra O'zbekiston nuqtayi-nazaridan kelib chiqqan holda yondashilsa maqsadiga muvoqiqligi ta'kidlanmoqda. Ma'lumki, koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq salbiy ta'sirlar bugun ham ko'plab munosabatlarning uzilishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, ayrim mintaqalarda yuzaga kelayotgan notinchiklар dunyo barqarorligiga, eng asosiysi, iqtisodiy taraqqiyotga jiddiy xavf solmoqda.

Ming afsuski, ana shunday global muammolar O'zbekistoni ham chetlab o'tmayapti. Lekin shunga qaramay, ya'ni global muammollar janjiri mustahkamlangan bo'lsada, O'zbekiston keyingi besh yilda yalpi ichki mahsulot hajmini ilk bor 80 milliard dollarдан oshirdi. Agar yuqoridaqidek tabibiy inqirozlar yuz bermaganida, bugun Yangi O'zbekiston islohotlari kutilganidan ham yuqori natijalar berishi mumkin edi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqi va parlamentga yo'llangan Murojaatnomasida ham asosiy

e'tibor yurdoshlarimizni o'yantirayotgan ijtimoiy masalalarga qaratilgani bejiz emas. Shuningdek, tarixiy hujjatda mayjud muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

Shu ma'noda ham Murojaatnoma Yangi O'zbekiston islohotlariga yangi to'lin, yangi kuch berdi deyish mumkin. Nazarimda Murojaatnomaning ta'lif-tarbiya tizimi uchun, umuman, xalqimiz uchun eng muhim jihat bu ta'lif va tarbiya, o'qituvchi va pedagoglar nufuzini oshirish, hurmatli ustozlarning yashash sharoitlarini yaxshilash ishlari 2023-yilda ham eng ustuvor va muhim masala sifatida belgilangan bo'ldi.

Shundan kelib chiqib ham joriy yilga yurtimizda – "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif yili", deb nom berildi.

Shu o'rinda bir haqiqatni tunu kun yodimidan chiqarmasligimiz kerak: barcha egzuliklarni avvalo tarbiyadan boshlandi.

Ma'lumki, tarbiyadek o'ta og'ir va mashaqqatlari mehnat yo'q dunyoda. Bugun boshimizga tushgan yoki tushayotgan qiyinchiliklarning bosh sababi ham aslida tarbiya bilan bog'liq. Bunda "Milliy tiklanish" partiyasi tomonidan "Inson o'zarmasda jamiyat o'zgarmaydi" degan shior bejiz tanlanmaganini ta'kidlash joiz. Zotan, inson o'zgarishi ham tarbiya bilan bog'liq. Agar kutganimizdek yetuk mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilish uchun birlashgan, tafakkurli jamiyatni orzu qiladigan bo'lsak, bunday insonlarning shakllanishiga yaxshi ta'lif sababchi ekanini



unutmasligimiz kerak. Lekin tarbiyalanmagan insonga ta'lif berish behudaga oqizilgan suvdek gap. Xuddi pojdevor qiyishiq bo'lsa, bino devori ham qiyishiq bo'ladi degandek... Ma'lumki, xalqimizda bola tarbiyasi oilidan boshlanadi degan gap bor. Ya'ni, tarbiya oilidan boshlanib, bog'chada davom ettiriladi, maktablarda esa yakuniy bosqichiga chiqadi. Shunday ekan, oila, bog'cha va maktab muhitining qanday bo'lishi davlat kelajagiga yo'naltirilgan siyosatni yaqqol ko'rsatib beruvchi omil ekanini ko'rsatadi.

Tan olaylik, bugun maktablarimizda tezroq hal qilinishi lozim bo'lgan tog-dek tog'dek muammolar bor. Ana shu muammolar tarbiyasiz, o'z maqsad va tafakkuriga ega bo'lмаган yoshlarning paydo bo'lishiga ham xizmat qilyapti. Afsuski, bunday yoshlar ham bizning kelajagimiz. To'g'ri, tarbiyaga eng avvalo ota-onasi va ustozlar mas'ulidilar. Imom G'azzoliy atyganidek: "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qabibi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qoyaqqo bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherib bo'ladi. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi". Ammo tarbiya uchun jamiyat mas'ul desak yanada to'g'riroq bo'ladi.

Murojaatnomada 2023-yilda ham o'qituvchilarning maqomi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini yanada ko'proq himoya qilish, yangilanayotgan Konstitutsiyabu alohida belgilanishi ta'kidlandi. Xususan, "Ta'lif sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidi", degan aniq-tiniq fikr bildirildi. Yoki, donishmandlar atyganidek: "Elni ma'rifat asraydi" degan gap yana bir marfa esga olindi. Abdulla Avloniyning bir as muqaddam aytligan: "Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir".

yoki amerikafik buyuk yozuvchi va tarixchi Genri Adamsning "O'qituvchi abadiyatga ta'sir ko'rsata oladi, uning ta'siri qayerda tugashini hech qachon bilib bo'lmaydi", degan purma'n so'zlari mohiyatini bugun har qachongidan ko'ra ko'proq anglayapmiz.

G'urur bilan ayтишимиз mumkinki, bugun Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'limga berilayotgan e'tibor ko'plab davlatlarga namuna bo'lmoqda.

Xulosa qilib shuni ayтиш joizki, biz tarixida insonni qanday tarbiyalash kerakligini ko'rsata olgan millatrim. Yaqinda Toshkentda o'tgan YUNESKO shafeligidagi 150 ga yaqin mamlakat vazirlari va vakillari hamda xalqaro tashkilotlar mutasaddilari ishtirokida kichik yoshdagi bolalarga g'amxo'rlik qilish va ta'lif-tarbiya berish bo'yicha II Jahon konferensiyasidagi e'tiroflar ham bu fikrga isbot bo'lishi mumkin. Ta'lif-tarbiya haqidagi gap ketganida Murojaatnomada joriy yildan boshlang'ich sinflardagi bolalarning mutlaqo yangi metodika asosida o'qitilishi ma'lum qilinganiga ayтиш joiz. Zero, bolalarimizda ona tili va chet tillari, kompyuterda ishlash puxta o'rgatiladi. Kasb-hunar, san'a va madaniyatga qiziqishi oshiriladi. Eng muhimi, o'quvchilarda erkin va kreativ fikrash, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish choralar ko'riladi. Bunda milliy o'zligimiz timsol, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytilradi.

Albatta, chet tilini bilish – zamон талаби. Ammo ona tilini bilish zararut kун sayin ustuvor masalaga aylanayotganini bir soniya bo'lsada, unutmasligimiz kerak. Bunda, albatta, o'zbekning bolasiga o'zbek qadriyatlari bilan tarbiya berishga, savodini o'zbek tilida chiqarishga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu jihatdan, Murojaatnoma xalqimiz farovonligini oshirish, O'zbekistonning rivojlanchagan davlatlar qatoriga qo'shishtirish buyuk va ezuq ishlarimizda dasturulmal bo'lishi, shubhasiz.

Taxmina VALIJONOVA,
Chirchiq shahridagi
39-DMTT direktori vazifasini
vaqtincha bajaruvchi

Yana ozgina kuting!

**MIJOZLARGA
ERTAK AYTAYOTGAN
BANK**

**YOKI «ALOQABANK»
BILAN ALOQAMIZ
UZILGAN
BO'LSA-DA, ALOQADA
QOLAYOTGANLARNI
OGOHLANTIRIB
QO'YISH KERAK DEB
HISOBBLADIK**

Kelgusi sonlarda

2022

“

Yurtimizda o'tgan yilning o'zida kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgan, 1 million aholi kasb-hunarga o'qitilib, ularning ish boshlashiga ko'maklashilib, kambag'allikdan olib chiqilgan.

YANGI O'ZBEKİSTON -

IJTİMOİY DAVLAT

Prezidentimiz
Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasi hamon jamoatchiligidan qizg'in muhokama qilinmoqda.
Ma'lumki, ana shu muhim hujjatda 2022-yildagi asosiy natijalarini tahlil qilish bilan birga, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar bo'yicha yechimlar ham ko'rsatib o'tildi. Eng asosiyasi, yaqin kelajakda xalqimizni o'yantirib kelayotgan ko'plab masalalarga oltilta muhim yo'naliш asosida oqilona yechimlar ko'rsatildi.

Shu ma'noda, Murojaatnomani xalqimiz farovonligi va davlatimiz taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ezgu harakatlar dasturi deb aytishga barcha asoslar yetarli. Ta'kidlash lozim, "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" degan egzu g'oya hayotiyligini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy va adolatlilik jamiyat qurish yo'lida xayrli sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Inson qadrini ulug'lash, odamlarni rozi qilish, ularning ertaga emas, bugun yaxshi yashashlari uchun munosib turmush sharotlinari yaratish, jumladan, avvalo muhajirlarni qo'llab-quvvatlab, uy-joy, ish, munosib ish haqi bilan ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifalarga aylandi. Qayd etilishicha, yurtimizda o'tgan yilning o'zida kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgan, 1 million aholi kasb-hunarga o'qitilib, ularning ish boshlashiga ko'maklashilib, kambag'allikdan olib chiqilgan. Yangilanayotgan Konstitutsiyada ham «Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat» degan tushuncha

o'z aksini topayotgani ko'pchilik mutaxassislar e'tiborini tortyapti. Ta'kidlash lozim, bu dunyoning iqtisodiy rivojlangan aksariyat mamlakatlarda amalga oshirilgan eng asosiy tamoyillardan biridir. Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining IV bobida ham "Adolatlilik ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" masalasiga alohida e'tibor qaratilib, strategiyaning 43 ta maqsadi ham bevosita shu bilan bog'liq. Murojaatnomada Yangi O'zbekistoni aynan "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida qurish maqsadlari asosiy yo'naliш sifatida belgilanib olingani bu boradagi ishlar 2023-yilda yanada faollashtirilishidan beradi. Ya'ni, insonlar salohiyatini ro'yogba chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharotlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, bиринчи navbatda, e'tiborni Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. Ma'rifatparvar jadid

bobolarimizning "Najot – ta'limda, najor – tarbiyada, najor – bilminda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi", degan purma'n o'sozlaridan kelib chiqib, maktablarda ta'lim sifati yanada oshiriladi, jamiyatda o'qituvchining obro'e'tibori ko'tariladi, buning uchun muallimlarga munosib sharoitlar yaratiladi. Umuman, 2023-yildan mabkab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay ishl qilish boshlanadi. Milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimzga bo'lgan e'tibor esa yanada kuchaytiriladi. Ma'lumki, bolaligidan to'yinmagan bola fiziologik jihadat yetarlicha shakllanmaydi. Ya'ni, bunday bolalar organizmi qabul qilmaydigan, rejalashtirmaydigan, qisqa fikrlri, besabre urushqoq va omadsiz inson bo'lib ulg'ayadilar. Shu bois, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, qo'shni va yaqin davlatlar – Qozog'iston va Rossiyada ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqatlanirish yo'iga qo'yilgan. Shundan kelib chiqib, partiyamiz Saylovoldi tashviqotlarida O'zbekistonda ham shunday tizimni yo'lda qo'yish tashabbusi ilgari surilgan edi. O'tgan yıldan boshlab Qoraqalp'iston va Xorazmda boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqatlanirish yo'iga qo'yildi va davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bu baroda yetarli tajriba ottirdidir. Joriy o'quv yilidan boshlab esa ushbu amaliyot qolgan viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida joriy etilishi wa buning uchun 2,3 trillion so'm ajratilishi ma'lum qilindi.

Tan olaylik, bugun O'zbekiston dunyo mehnat bozoriga arzon ishchi kuchi yetkazib berayotgan davlatlar qatoriga kirib qoldi. Murojaatnomada ushbu masalaga ham e'tibor qaratilib, maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga

ega bo'lmasdan kirib kelayotgani barchamizni o'yantirish kerakligi, shu bois, 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar imkoniyatidan samarali foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Shundan kelib chiqib, 2023-yildan boshlab yangi dastur asosida har bir viloyatdagi 1 tadan texnikumda Yevropa kasbiy ta'lim standartlari joriy etiladi. Kelgusi besh yilda esa barcha kollej va texnikumlar ushbu tizim bilan qamrab olinadi. Prezidentimiz raisligida shu yilning 20-yanvar kuni ham aynan ushbu masalada kengaytirilgan yig'ilish o'tkazilib, unda tuman, mahallalarning xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchilar maktabning o'zida 64 xil ishchi kasblarga o'rgatilishi taklif etildi. Tanlab olingan maktablarida kasb-hunar ustaxonalari tashkil etish, ularni jihozlash va zarus ashylar bilan ta'minlash vazifasini qo'yildi. Bunga yoshlar yetakchilarini va tadbirkorlar ham jaib etilishi, Yoshlar jamg'armasidan mablag'lar yo'naltirilishi belgilandi. Murojaatnomada hayot-mamot masalasi bo'lgan maktabgacha ta'lim yo'naliشida ham bir necha vazifalar belgilandi. Kelgusi besh yilda qamrovni 80 foizga yetkazish uchun 600 ming yangi bog'cha o'rni kerakligi qayd etilib, bog'chalar sonini ko'paytirish, ulardag'i ta'lim va tarbiya sifatini tubdan yaxshilash bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinishi, bog'cha qamrovini kengaytirish bo'yicha xususiy sektorga qo'shimcha sharoitlar yaratilishi belgilandi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Murojaatnomada alohida belgilangan «Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat» tamoyili xalqimiz manfaatlarini himoya qilishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Shaxlo ERKINOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Bo'ka tumani bo'linmasi mas'ul xodimi,
partiya faoli

«YANGI O'ZBEKİSTON – RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR YURTI» DASTURI O'Z SAMARASINI BERMOQDA. BIR YILNING O'ZIDA 2 MINGGA YAQIN TADBIRKORLAR ILK BOR TASHQI BOZORLARGA CHIQDI.
KELGUSI YILDA HAM EKSPORT QILUVCHILARGA TRANSPORT VA BOSHQA XARAJATLARINI KOMPENSATSIYA QILISH DAVOM ETTERILADI.

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING OLIY MAJLISGA YO'LLAGAN MUROJAATNOMASIDAN

2021

-fevral kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentiga bo'lib o'tgan sayloving yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, "Yoshlar parlamentiga saylov o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvoqiq, partyaning Markazi va hududiy Kengashlarida (36 ta okrug orqali 42 ta tuman va shahar qamrab olingen) saylov shabslari tashkil qilinib, saylovi yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha choradibirli belgilangan edi. Shu yilning 24-yanvaridan 4-fevralga qadar 1273 ta nomzod arizasi qabul qilindi.



Olimlar, fidoyi ustozlar, tinib-tinchimas senatorlaru

XALQ SUYADIGAN DEPUTATLAR SAYLANDI

Aytish joizki, dastlabki tahillilar nomzodlar orasida huquqshunoslar, tarixchilar, pedagoglar, iqtisodchilar, siyosatshunos va OAV vakillarining nisbatan ko'pligini ko'rsatdi.

Shu bilan birga nomzodlarning 484 nafari (38%) xotin-qizlar, 789 nafari (62%) erkaklardan iborat bo'ldi. Ularning yosh ko'rsatkichi bo'yicha 384 nafari (30,1%) 18-22 yosh oralig'iда, 483 nafari (37,9%) 23-26 yosh hamda 406 nafari (32%) 27-30 yoshdagilar ekan. Yana bir muhim jihat: nomzodlar orasida ilmiy darajaga ega bo'lgan, tengdoshlari orasida o'ziga xos yetakchilik qobiliyatiga ega, davlat va jamoat ishlardan shaxsiy tashabbuslari bilan faol ishtirok etayotgan boshqa millat vakillarining ham borligi bo'ldi.

Saylov shartlariga ko'ra, nomzod 18 yoshga to'lgan, lekin 30 yoshdan oshmagan, oliy (tugallanmagan oliy) ma'lumotli, O'zbekiston fuqarosi bo'lishi lozim edi. Nizomda shuningdek, nomzodlarning kamida 30 foizini xotin-qizlar tashkil qilishi, boshqa partiyalardan farqli o'laroq "Milliy tiklanish" partiysi a'zosi

bo'limasada, partiya g'oyalari xayriyoh bo'lganlar nomzod sifatida ro'yxatga olinishi belgilangan edi.

Shundan kelib chiqib, birinchi bosqichda partiya xodimlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengash deputatlari hamda Yoshlar parlamenti vakillaridan iborat ishchi guruh tomonidan toshirilgan hujjatlar saralandi. Saylov hay'ati a'zolari tomonidan munosib nomzodlarni aniqlash maqsadida subbatlar ham o'tkazildi. Sharh-sharoitdan kelib chiqib, subbatlar "onlayn" tarzida ham tashkil qilindi.

Shu tariqa hududiy saylov hay'atlari xulosalarini asosida birinchi bosqichdan 108 nafar nomzod o'tdi. Nizom talablariga asosan ular orasidan partyaning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi o'rniqa qarab, hududlar kesimida 36 nafar nomzod tanlab olinishi kerak edi. Ikkinci bosqichda ham nomzodlar bilan subbatlar sharh-sharoitdan kelib chiqib "onlayn" va "oflayn" shaklda o'tkazildi.

Nihoyat kecha respublika bosqichi yakunlandi. Bir-birdan kuchli, aqli, tashabbuskor

nomzodlar, so'zamol, ba'zan his tuyg'u, ba'zida esa vazminlikka berilib o'z saylovoldi dasturini himoya qilayotgan yoshlarni kuzatib, yangi avlod vakkillari haqidagi ayrim xulosalarimiz aldamchi ekaniqa ham amin bo'ldik. Ochig'i, shashti baland, mavjud muammolarni yuzaki emas, chuqur tahlil qilayotgan yoshlarga qarab, ertaga ular orasidan kuchli olimlar, tanqli pedagoglar, tinib-tinchimas senatorlar, o'z saylovchisi uchun jonini ham fido qilishga tayyor deputatlar chiqishiga ishonadi.

To'g'ri, nomzodlar orasida sanoqli bo'lsada ota-onasining zo'ravonligi yoki johilligidan foydalanim, imtiyoz olishga umid qilganlar ham bo'ldi...

Nachora, har qanday saylovda uchraganidek bu safar ham hay'at a'zolardan qat'iyatl bo'lish talab etildi...

Qayd etish joizki, barcha nomzodlar o'zlarining saylovoldi dasturlarida yoshlarning turli sohalardagi intishlarini yanada ko'proq qo'llab-quvvatlash, gender tenglik masalasi, tadbirkorlikni rivojlantirish, joylarda bandlikni ta'minlash,

turizm, tarixiy obidalarni asrabavaylash va boshqa sohalarni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab tashabbus va takliflarni ilgari surdilar. Jumladan, ayrim nomzodlar "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunni yangi tahrirda qabul qilish, Qonunchilik palatasi, Yoshlar parlamenti hamda partiya guruholari o'ttasida aloqalarini mustahkamlash bo'yicha ham takliflar berdilar. Boshqa nomzodlar esa yoshlarga sifatli ta'lim berish muammolari, ayniqsa, eng chekka hududlardagi yoshlarga e'tiborni kuchaytirish masalarini ilgari surdilar.

Bundan tashqari, yoshlarga ko'proq imtiyoz berish orqali madaniyat sohasini, xususan, musiqa va san'at maktablarini faoliyatini yaxshilash, yoshlarni jismoniy tarbiya hamda sportga jaib etish orqali sog'lon turmush tarzini shakllantirish va boshqa ko'plab tashabbuslar o'rta ga tashlandi.

Partiyamizning "Yoshlar qanoti" tomonidan anchadan buyon yoshlar va bolalar parlamentini tashkil etish g'oyasi ilgari surib kelinayotgan edi,

deydi Saylov hay'ati raisi Feruza Muhammedjanova. – Shuning uchun ham Saylovoldi dasturimizda Yoshlar parlamenti tashkil etish g'oyasi kiritilgandi. Shuni ta'kidlash joizki, Yoshlarining siyosiy faoliyigini rag'batlanirishda dunyora keng qo'llanilgan Yoshlar parlamenti modeli bugun O'zbekistonda ham siyosiy sohadagi eng ma'qul innovatsiyaga aylanganini ta'kidlash lozim. Bu g'oya barcha siyosiy partiyalarning "Yoshlar qanoti" faoliyatini yanada jondorlantirishga turkti bo'lishi, shubhasiz. Albatta, saylanayotgan vakillarimiz Yoshlar parlamenti faol ishtirok etib, partiyamiz g'oya va maqsadlarini amalga oshirishda yoshlarning haqiqiy yetakchilariga aylanishlariga umid qilamiz.

**Hamdam NIYOZOV,
partiya Markazi kengashi
bo'lim boshlig'i**

P.S. Gazetamizning kelgusi sonida Yoshlar Parlamentiga bo'lib o'tgan saylov yakunlari e'lon qilinadi. Kuting, janobi yoshlar...

IBROHIM ABDURAHMONOV YAXSHI OLIMDIR, LEKIN YAXSHI OLIMDAN HAR DOIM HAM YAXSHI BOSHQARUVCHI CHIQAVERMAS EKAN

I

olumnist Komil Jalilov vazirning bir oy ichidagi ikkinchi sharmandali topshirig'iga e'tibor qaratibdi. «Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 14-fevralda barcha oliy ta'lim muassasalarini rektorlari va filial direktorlariga «Shoshilich!!!» grifi bilan yuborilgan 02/23-2-son xati ilovasida «jinoyatchilikka moyil», «yot g'oyalari ta'siriga tushish arafasida»gi talabalar ro'yixatini shakllantirishda tashqari boshqa qiziq bandlar ham bor. Misol uchun: - yoshlar o'ttasida paydo bo'layotgan yomon illatlardan ogoh qilish maqsadida ta'sirchan qisqa hikoyalar nashr qilish, OTMdha spektakllar namoyish etish;


- quyosh panellarini o'z mablag'lari hisobidan o'rnatish, isitish tizimlarini (kotyollarni) ko'mirga o'tkazish, muqobil energetikani joriy etish bo'yicha dastur ishlab chiqish;

- OTMning "sharaf" kodeksini yaratish, xodimlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat bo'yicha e'lon qilinayotgan maqola va fikrlarga tizim sha'nini himoya qilish bo'yicha o'z fikrlari bilan ishtirok etishi bo'yicha tushuntirishlar olib borish», deyilgan.

Ma'lumot uchun bir necha kun avval Ibrohim Abdurahmonov bitiruvchilariga ishga joylashmagan nodavlat OTMni tugatish bilan ham qo'rqitgan, bu esa ko'philikning e'tiroziga sabab bo'lgan edi.

Boshqaruvchi tomonidan konstitutsiyaga zid bo'lgan bunday qarorlar o'ylab topish, tizimni totalitarlashtirishga, orqaga tortishga olib keladi, albatta,

Ilyos SAFAROV



KETMA-KET
5 KUN DAM
OLINADI

Prezidentning "2023-yilda rasmiy sanalarни nishonlash davrida qo'shimcha ishlamaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida"gi farmoniga muvoqiq, Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan:

- besh kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar – 5 kun (18 – 22-mart kunlari);
- olti kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar – 4 kun (19 – 22-mart kunlari) ketma-ket dam oladi.
- Besh kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlarning dam olish kunlari quyidagicha ko'chiriladi:
- 11-mart — shanba kunidan 20-mart — dushanba kuniga;
- 25-mart — shanba kunidan 22-mart — chorshanba kuniga.
- Shuning hisobiga besh kunlik ish haftasida ishlaydiganlar 11 va 25-mart kunlari ishga chiqishlariga to'g'ri keladi.
- Olti kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun 20-mart — dushanba va 22-mart — chorshanba kunlari qo'shimcha dam olish kunlari bo'ladi.
- Ish haftasining turidan qat'i nazar barcha xodimlar uchun 23-mart, payshanbadan boshlab odatdagidagi ish kuni hisoblanadi.

N I G O H
N A D O M A T
N A V A
S U S

CHEKAYOTGANLAR RO'YXATIGA KIRISH NASIB QILMASIN!



Mutaxassislarining yozishlaricha, mahsulot reklama qilishning 30 ga yaqin usullari bo'lib, ular maqsadiga, turiga qarab tijorat, milliy, interaktiv va virusli reklama yo'nalishlariga bo'linar ekan.

Odatda reklama bu biron subyekt tomonidan muayyan qatlama fikrlarini o'ziga jalg etish maqsadida amalga oshiriladigan strategiyadir. Uni shakllantirishda turli xil mafkuralardan foydalaniadi. Shu o'rinda insonning barcha qarorlari psixologik sabablarga ko'ra qabul qilinishini ta'kidlash lozim. Bundan esa reklama beruvchining asosiy maqsadi insonni o'sha narsani xarid qilishi uchun ilhomlantiridigan vositalarni izlashga qaratiladi degan fikr kelib chiqadi.

Shubhasiz, bugun har qadamimizda reklama. Hatto, hayotimizni reklamalarsiz tasavvur qila olmay ham qolyapmiz. Ammo bir yaxshining bir yomoni bor deganlaridek, yoshlarimiz mafkurasiga zarar yetkazadigan, ularning andisha, or, ibo va hayo kabi fazilatlari yo'qolishiga ham ko'proq reklamalar sabab bo'layotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Tan olaylik, bugun aksar xususiy telekanallar "notarbiyaviy" seriallar namoyish etish orqaligina kun kechirishyapti. Ma'lumki, bizda barcha oila a'zolari bir dasturxon atrofida ovqatlanadi. Bu jarayonda esa oinaijahon ota-ona va farzand o'rtaсидagi hayo pardasini butkul olib tashlovchi qurol vazifasini o'tay boshladи. Ayniqsa, "Sperolin va Mammolin: farzand ko'rishni rejalashtirishda jiddiy qadam" yoki bepushtlikni bertaraf eting kabi o'nlab dori vositalari reklamasi o'sha nozik pardalarni yirtib tashlashga xizmat qilyapti. Eng achinarlisi, buni o'sha telekallarning chiroyli kiyungan, minbarlarda odob-axloqdan va'z o'qiydigan dohiylari ham ko'rishyapti, hatto bunday reklamalarni bog'cha yoshidagi bolalarimiz ham she'r kabi yodlab olishyapti. Ilgari bunday dori vositalarini faqat mutaxassis bergen retseptlarda ko'rardik. Balandparvoz bo'sada aytish kerak: bunday holatlar

Q a d i m d a n a y o l l a r i ulug'langan, odob-axloq, ibo, iffat, hayo kabi fazilatlardan millat ayollarining libosi sanalgan yurtimizda ayollarning ichki kiyimlari, yalang'och ayol tanasi ko'rinishida reklama qilinayotganiga ko'z yumyapmiz. Gapirsak zamonaviy qarashlarga to'liq deb qabul qilishyapti.

turmush tarzimizning ma'naviy negizlariga bolta urishdan ko'ra xavfliroq emasmi?

Bugungi davr yoshlari o'ziga xos "tushunchalar urushi" sharoitida yashamoqdalar. Ayni paytda O'zbekistonda jami aholining 65 foizidan ziyyodini 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etmoqda. Tug'ilish darajasi ham qaribiy 1 mln.ga yetib qoldi. Ma'lumki, har qanday davlatning jalal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon yashashi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq.

Tarbiya, yoshlarga e'tibor haqida gap ketganida bugun G'arb'dan kirib kelgan, haqiqiy madaniyatga umuman aloqasi bo'lmagan turli holatlar barchani bi' tusga, bir qolipa, bir xil ko'rinishga va bir xil fikrlashga, ya'ni bir xil yashashga, urf-odatlarimizdan, mentalitetimizdan yuz o'girishga undayotganini achenchi haqiqat sifatida tan olmog'imiz kerak. Mana shunday paytda biz mafkura masalasida xato qilmasligimiz kerak.

Tan olaylik: milliy maslak va bir butunlik, avvalo, ommaviy axborot vositalari ta'sirida shakllanadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistonda 54 ta mahalliy telekanal faoliyat olib bormoqda. Lekin ularning hech qaysi biri yoshlar masalasiga bugungi zamон o'zgarishlaridan kelib chiqqan holda e'tibor qaratayotgani yo'q. Hatto ba'zan Yoshlar telekanali yoshlarni umuman esdan chiqarib qo'ydimi deging keladi. Ko'plari esa "ma'naviyat", "ma'naviyat" deyaverib yoshlarimizni M A ' N A V I Y A T D A N bezdirmoqdar.

Bugun ayrim yoshlarimiz ana shunday holatlar sabab ota-bobolarimiz "qora" degan narsani "oq", "oq" deganini esa "qora" deb uqtimoqdalar. Bunday bo'lishiga ham o'zgarishlaridan kelib chiqqan holda e'tibor qaratayotgani yo'q. Hatto, ba'zan matbuot va axborot sohasidagi xatolab desak xato bo'limas.

Q a d i m d a n a y o l l a r i ulug'langan, odob-axloq, ibo, iffat, hayo kabi fazilatlardan millat ayollarining libosi sanalgan yurtimizda ayollarning ichki kiyimlari, yalang'och ayol tanasi ko'rinishida reklama qilinayotganiga ko'z yumyapmiz.

Bu bilan qadriyatlarimizga oyoq bosyapmiz, tariximizni unutib, yuksak ma'naviyat kabi tushunchalarni hisobotlar uchun xo'ja ko'rsinga o'tkaziladigan davra-suhbatlarda tanqid qilishlariga yo'l ochib beryapmiz.

Tarixdan ma'lumki, Islomning oltin davri hamda Temuriylar renessansi davrlarida musulmon va jahon sivilizatsiyasiga bebahо ilmiy-madaniy va ma'rifiy hissa qo'shgan Farg'oniy, Buxoriy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk ajodaloriga ega o'zbek xalqining kundalik turmushi, jumladan, tarbiya masalalari islom dini bilan bog'liq bo'lgan. Ya'ni, o'zbek xalqining asriy an'analarini, jumladan, tarbiya sohasidagi an'analarini tabarruk dinimiz bilan bog'liq.

Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklari va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o'rganishga da'vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo'shmlar bilan xushmuomalа bo'lish fazilatlari o'zbek oilalarida, ularning dинга munosabatlaridan qat'i nazar, yoshlarga singdirilgan. Afsuski, bugun oramizda ilg'or qarashli, o'qimishli, odobi va kelajagini bugundan, yoshlik chog'idan qurayotgan yoshlar bilan bir qatorda, oz bo'sa-da, savodsiz va gumroh yoshlar ham uchrab turibdi. Kuzatuvlар shuni ko'rsatadiki, bunday yoshlar ham dunyoviy, ham diniy jihatdan, savodsiz bo'lib, ularning oilarida tarbiyaga kam e'tibor berilgan.

Xulosa o'rnda shuni aytish joizki, farzand ota-onasining umri, qarashlari va hatto orzu-umidlari ko'zgusi hisoblanadi. Barchamiz o'zgarishni o'zimizdan boshlashimiz zarur. O'z faoliyatini tong saharlab artistlar orqali reklama qilishdan boshlaydigan telekanallardan tortib, gazeta muxbirigacha, blogerdan tortib, o'zi tarbiyaga muhtoj ayrim ota-onasigacha hushyor bo'laylik: tarbiya hayot-mamot masalasi, bas shunday ekan, farzandlarimiz tarbiyasiga ta'sir qiluvchi har qanaqa omilga qarshi o'z mafkurmizga ega bo'lishimiiz, keng nazoratchilik ishlarni amalga oshirmog'imiz darkor.

Aks holda ertaga attang deb qolamiz...

Muxlisa ERGASHEVA,
partiya Markaziy kengashi
bo'lim boshlig'i

“ ”

Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm,
eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir.

SHAVKAT MIRZIYOV

FOIZSIZ, IMTIYOZL

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda «10 daqiqada 45 ming dollar pul topishingiz mumkin» yoki «biroz pul tikib, ko'p mablag' topish mumkin» shiori ostida reklama va e'lonlar tarqatilayotgani inson aqlini shoshib qo'yadi. Oz mehnat qilib, yaxshi daromad topish kimga yoqmaydi, deysiz?! Biroq xalqimiz «Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur», deb bejizga aytmagan.

Garchi, takror va takror OAVlarida, ijtimoiy tarmoqlarda firibgarlikdan ogoh bo'lishga oid qator video roliklar, lavhalar, maqolalar e'lon qilinayapti, ammo, shunga qaramay, firibgarlar «tuzog'i»ga tushib qolayotgan yurtoshshlarimiz soni kundan kunga ortib bormoqda. «Menga Fransiyang bos vaziri nomiga ochilgan telegram akkauntidan xabar keldi. Unda «Sizga Fransiyang bos vaziri hech qanday garovsiz, foizsiz imtiyozi 250 million dollar kredit ajratdi», deyilgan. Hujatlarni rasmiylashtirish uchun bir hisobraqamga 1000 dollar to'lashimni aytdi. Keyin «Bu mablag' yetmad», deb «Yana 1000 dollar to'lov qiling», dedi. Bu pullarni to'ladim. Shundan so'ng Fransiya banki hisobraqamigizni tekshirishni aytayti, sizga ishoshimayapti, yana 550 dollar to'lashimni, hujatlarni notariusdan tasdiqlatishim uchun esa 1000 dollar so'radi. Xullas, jami bo'lib, 4 700 dollar to'ladim. So'ng telegram akkauntlarini o'chirib, yo'q bo'lib qoldi. Shundagina firibgarlar «tuzog'i»ga tushganimni angladim...», deydi farg'onalik J.M. «Yaqinda instagramdan AQSHdagi banklarning birida ishlashini aytib, bir ayol

xabar yubordi, – deydi poytaxtlit Laylo Olimova. – O'zbekistonlik bir oila yong'in oqibatida halok bo'lganligi, ularning bankda 333 milliard dollar omonati borligini aytib, shu mablag'ni bo'lismish olishni taklif qildi. Kimga ham g'oyibidan kelgan boylik yoqmaydi?! Bu taklifga rozi bo'ldim. Shunda u «Bu mablag'ni rasmiylashtirish uchun 1000 dollar to'lab bering, deb hisobraqam yubordi. Mablag'ni to'ladim. Shundan keyin notariusga 1000 dollar, bankka 3000 dollar, sudga 2000 dollar so'radi. 333 milliard dollarni olsam, bo'lgani deb, bu pullarni berdim. Bu pullarni to'lab bo'lgach, firibgar «bankir» yo'q bo'lib qoldi. Oqibatda 7000 dollar pulimdan aylidim. Shu o'rinda fuqarolarga aytgan bo'lar edim: kimdir sizga to'satdan katta meros qoldirishni taklif qilsa, o'chirib tashlang. Bu xabarga bir marta aloqaga chiqsangiz, sizga psixologik ta'sir ko'rsatib o'ziga og'dirib oladi. O'zingiz bilmagan holda katta miqdordagi mablag'ingizni so'tib, pullarni to'ladim. Keyin

500 MILLION DOLLAR KREDIT

YANA BIR HIYLA...

Yana bir achinarli holat, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda yosh qiz va ayollarga firibgarlar «biz nufuzli bir agentlikdanmiz. Sizni suratlaragini Instagram, Facebookda ko'rib chiqdik. Sizni serialga, kinoga, modellikka taklif qilamiz», deb xabar yo'llamoqda. Bu kabi yolg'on xabarlar bilan firibgarlar qanchadan-qancha opa-singillarimizning sha'ni, qadr-qimmatini to'kib, moddiy va ma'naviy zarar yetkazmoqda.

Poytaxtlit Dildora Isroilova ham mana shunday yolg'onlarga aldanib qolgan qizlardan biri.

«Xorijning nufuzli bir agentligidan xabar keldi, – deydi Dildora. – O'zini agentlikning rahbari deb tanishtingrik kimsha, kinoga rol o'ynashga taklif etdi. Buning uchun soatiga 300 dollardan 500 dollargacha mablag' to'lashimi aytidi. Ular mendan biroz zamonaviy ochiq-sochiq tushgan suratlarini so'rashdi.

Yuborganimdan keyin ular menga shantajlik qila boshladi. «Ushbu suratlarining internetga tarqatish yuboraman. Agar buni xohlamasang, 1000 dollar pulni mana shu hisobraqamiga tashla», deb tahdid qildi. Bir amallab bor zeb-ziyatinimni so'tib, pullarni to'ladim. Keyin

har oy shuncha pul talab qila boshladi. Shundan so'ng Ichki ishlar vazirligiga murojaat qildim. Ular menga yordam berdi».

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Kiberxavfsizlik markazi matbuot xizmatining ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda mammakatimizda kiberjinoyatchilikning o'sish tendensiyasi kuzatilmogda. Xususan, so'nggi 3 yil davomida kiberjinoyat sifatida e'tirof etilayotgan holatlar soni 8 baravarga, ya'ni 600 tadan 5 000 tagacha ortagan.

Ta'kidlash lozimki, axborot texnologiyalari vositalaridan foydalaniib, sodir etilgan jinoyatlarini aniqlash va fosh etish alohida ko'nigma talab etsada, mazkur turdag'i jinoyatlarning 80 foizi ochilgan.

FIRIBGARLIKNING YANA BIR YO'L...

Internetda eng ko'p tarqalgan yana bir firibgarlik, bu treyningdir. Ijtimoiy tarmoqlarda yiliiga 200 ming foizgacha foyda olishni aytib ko'plab e'lonlar berilmoqda. «Biror biznesga pul tikishdan oldin inson shu biznesni mukammal o'rGANIB chiqishi kerak, – deydi iqtisodchi Rustam Namozov. – Afsuski, bugungi kunda ko'pchilik tadbirkor bo'lish istagidagi yoshlar tezkor boyib ketish maqsadida internetdag'i firibgarlar tuzog'iga tushib qolayapti. Natijada birdaniga bankrot bo'lmoxda. Biznes boshlashning o'z bosqichlari bor. Birinchidan, namuna



“

Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi davr – Yangi O'zbekistonni barpo etishda, «Uchinchi Renessans» poydevorini yaratishda faqat ma'rifatli va ma'naviyatli yoshlarga umid bog'lash mumkinligini to'liq his etishimiz lozim.

sifatida boshlagan ishini asta-sekin amalga oshirishi kerak. Internetda bu borada ma'lumotlar juda ko'p. Ammo unutmaslik kerakki, biznes bilan bog'liq ma'lumotlarning 95 foizi ishonechsiz. Buni endigina olyighoni bitrib kelayotgan yoshlar ajratma olmaydi. Treyding sohasi – moliyaviy instrumentlarning yuragi hisoblanadi. Bu aksiyalar yoki valyuta birliklari bo'lishi mumkin. Aksiya bozorida buni bize tahlil qila olishimiz kerak.

Misol uchun, ushbu kompaniyaning oylik, yillik hisobotlarini, kelajakdag'i rejalarini, hozirgi holat qanaqa, kapitalizatsiya va shunga o'xshagan jarayonlarni tekshirish zarur. Bugungi kunda men treyderman, shu soha orqali sizga daromad qilib beraman, deguvchilarining aksariyati yetarliche bilimga ega emas. Ammo ular juda yaxshi marketolog. Ya'ni, insonlarning psixologiyasini biladi. Shu «richagylardan foydalanih, insonlarning mablag'ini o'ziga jaib qilmoqda.

SOXTA KOMPANIYALAR...

Shuni ham aytish o'rinniki, bugungi kunda elektron platformalardan, xususan, quyosh panelari, elektromobilarni quvvatlash stansiylari va boshqa loyihalarga investitsiya kiritish niqobi ostida moliyaviy piramidalar ortib bormoqda. Nomi anchagini tanilgan yirik kompaniyalarga investitsiyalar kiritish orqali yillik o'rtacha 500 foizdan 2000 foizgacha daromad topishiga aholini ishontrib, katta mijdorda pul mablag'larni jaib qilib kelgan yigirmadan ortiq soxta loyihalar aniqlangan.

«Bugungi kunda bunday soxta kompaniyalar turi ko'payib ketgan. O'zlarini qandaydir katta kompaniyaning vakili ekanligini tushuntiradi, – deydi tadbirdor Muhammadamin Rasulov. – Ushbu odamga o'z kompaniyasining litesenziyasini, mablag'larini yuborishadi. Qarabsizki, bizning oddiy xalqimiz bunga ishonib aladanadi. Misol uchun, biz 50 ming so'm, hattoki, 100 ming so'm bilan ham treyding sohasiga jaib qilinib, u orqali firibgarlarning aytganini qilishimiz va yuqori daromadga chiqishimizni aytadi. Biz o'z-o'zidan investitsiya qilamiz. Shunda firibgarlar pullarimizni ko'paytirib berilganini ko'rsatishadi. Soxta platformalar yordamida pulimiz ko'paytirilayotgani, yaqin kunda mablag'ni yechib olish mumkinligini, so'ng kattaroq sarmoya kiritish kerakligini aytadi. Hamma muammo pulni yechish jarayonda boshlanadi. «Dastavval siz kiritigan ozroq sarmoyan, ko'proq yutib olasiz, – deydi toshkentlik fuqaro Farhod Aliqulov. – Keyin sizga katta o'yinlar taklif etildi.

Menga ham 2000 dollarni taklif qilgan. Bu pulni tiksam, 4000 dollar qilib olishmini aytgan. Bu pulni tikishim bilan kompyuterda nimadir buzildi. Nimadir bloklandi. Kompaniyadagilar buni ochish uchun investor kelib pul tikishi kerakligini, shundan keyin bu blok ochilishini aytди. Bankdan tikilgan pulingiz qaytarib yuboriladi, pulni qaytarib olish uchun foizini siz to'lashning kerak, dedi. O'zi qoida bo'yicha bank pul yuborganda, hamma xizmati uchun o'sha puldan foiz ushlaydi. Lekin negadir ular olmaydi. Siz yuborishingiz kerak. Bizga yuborgan puldan olib qolsa bo'ladi-ku desak, yo'q, u pulga tegish kerak emas, deydi. Firibgarlarning psixologik ta'sirida bo'lib, ular aytgan pullarni yuboraversiz. Oxiri ular xohlagan pulni yig'ib olsandan keyin bordaniga telefon, telegramdagi barcha ma'lumotlar o'chadi. Siz ularga mutlaq kerak bo'lmaysiz. O'shanda aldanganingizni tushunasiz. Fikrimcha, oson va tez pul ishlab olish ishtiyogi odamni qamrab oladi, aldanayotganini ham bilmaydi. Oson pul topaman deb, katta muammollarga tushib qolmang.

MA'LUMOT O'RNIIDA...

Aytish joiz, investitsiya kiritmoqchi bo'lgan mahalliy hamda xorijiy investorlar aldanib qolishlarining oldini olish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligining veb-saytida litsenziya oлган O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyani amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan bir qator investorlar bor. U yerda brokerlar, investor vositachilarining telefon raqamlari, yuridik manzillari keltirib o'tilgan. Ular biznes boshlamoqchi bo'lganlar uchun zarur maslahat beradi. Internet tarmoqlarida ko'pincha bankdan onlayn kredit olish, turli yutuqli aksiyalarda ishtiroy etishga chaqiruvchi e'lolar beriladi yoki sizga biror xorijlik badavlat insondon meros qolganaytiladi. Havola orqali o'tganizingda esa sizdan plastik kartangizning amal qilish muddati, ustidagi 16 xonali raqam hamda telefonigiza yuborilgan kodni kiritish so'raladi. Bularni bajarsangiz, kartangizdag'i barcha pullar yechib olinadi. Markaziy bankning ma'lum qilishicha, bugungi kunda soxta havolalar yaratilmoqda. Ya'ni, mashhur brendlari yoki banklar, to'lov tashkilotlarining logotiplari bilan bank mijozlariga xabarnomalar tarqatilmoqda. Qandaydir loterore o'yinlari yoki aksiyalarida ishtiroy etdingiz, siz g'olib bo'ldingiz, sovrinlarni olishingiz uchun o'zingizga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni kiritting, pullar esa bank

kartangizga yoki elektron hamyonlariningizga tushadi, degan mazmundagi xabarlar tarqalmoqda. Bu xabarlar fuqarolarmiz tomonidan biliibilmay aldangan holatlar ko'p uchraydi. Har qanday himoya tizimida inson omili eng zaif bo'g'in hisoblanadi. Shunday ekan, hech qachon o'zingizga tegishli bo'lgan bank karta raqami va SMS orqali kelgan tasdiqlash kodlarini notanish odamga bermang. Banklar yoki to'lov tashkilotlari xodimlari hech qachon sizdan bunday ma'lumotlarni so'ramaydi. Chunki bunday ma'lumotlar o'zingin tizimida bor.

IT firibgarlarining yana bir ko'rinishi internetdagi biror saytni olib, shuning klonini yasaydi. Masalan, internet do'konini yasaganda, uning bitta harfini o'zgartirib qo'yadi. Siz unga e'tibor bermaysiz. Natijada to'lov qilib, parolingizni kiritasiz va sizni barcha Telegram ma'lumotlaringiz, kontaktlaringizni ko'radi. Birinchidan, jozibador narxlarda mahsulotlar qo'yiladi. Uni naqd pulda to'lamoqchi bo'lsangiz, kuryer mahsulotni olib keladi. Mahsulotni pulni to'lamasdan oldin ocholmaysiz. Natijada uya kelib qutini ochsangiz, ichida g'isht bo'ladi. Mutaxassisilarning ma'lum qilishicha, soxta platformalarning IP manzillari chet el serverlarida joylashganligi, ularning aniqlash imkoniyatini chegaralab qo'ymoqda.

Natijada soxta platformalarda investorlar ishtiroy etgan shaxslar jabranih, kiritilgan mablag'larni ortga qaytarish imkonsiz bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda internetda avj oлgan firibgarliklardan yana biri erkin savdo maydonchalarida joylashtirilgan e'londarid. Huquqni saqlash organlariga murojaat qilgan Nikolay Tarasovning aytishicha, u Olx.uz sayti orqali «Chevrolet Epica» avtomobilini sotib olmoqchi bo'lgan. E'lom muallifi unga ushbu avtomobil Ukrainada ekanini, agar Tarasov puli borligini tasdiqlasi, uni O'zbekistongacha haydar borishga tayyorligini aytgan. Nikolay sotuvchi nomiga 4000 AQSH dollarni o'tkazgan.

Shundan so'ng sotuvchi aloqaga chiqmay qo'yan.

Xuddi shunday voqeя Said Zoirov ismlu fuqaro bilan ham sodir bo'lgan. Unga «Chevrolet Lacetti» avtomobilini haydab kelishni va'da berishgan.

Xulosa qilib aytganda, firibgarlar tuzog'iiga tushib qolmaslik uchun birinchi navbatda o'zimiz ogoh bo'lishimiz, huquqiy va moliyaviy bilimimizni oshirishimiz kerak.

Shahnoza MAMATUROPOVA



38 MING

AQSH DOLLARIKA YER
SOTMOQCHI BO'LGAN SHAXSGA
JINOVAT ISHI QO'ZG'ATILDI

Bosh prokuratura
huzuridagi
Departament
organlari yer
savdosи bilan bog'liq
noqonuniy holatlarni
aniqlab, bunga yo'l
qo'yan shaxslarga
nisbatan javobgarlik
choralari ko'riliшини
ta'minlashni davom
ettirmoqda.

Fuqaro Q.M. Oltinko'l tumani "Qo'sheta" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 144 metr kv. zaxiradagi yer maydonini fuqaro M.Z.ga yuqori lavozimda ishlochchi tanishlari yordamida hujjalarni rasmiylashtirib berish orqali sotishga kelishadi. Buning evaziga 38 ming AQSH dollari oлган.

Shu vaqtida u Departament hamda DXXning Andijon viloyati boshqarmalari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Departament hamda IIVning Andijon viloyati boshqarmalari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda esa fuqaro I.K. boshqa bir fuqaro R.E.ning ishonchiga kirib, unga onasi O.T.ga hadya shartnomasi asosidan tegishli bo'lgan 14 soxit yer maydonini va 37 soxit zaxiradagi yer maydonini 35 ming 700 AQSH dollariga sotishini aytib, oldindan 20 ming AQSH dollarini

olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan. Departament hamda IIVning Sirdaryo viloyati boshqarmalari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda fuqaro M.Sh. Sirdaryo shahar "Do'stlik" mahalla fuqarolar yig'ini hududidan boshqa bir fuqaroga bog'larpo etish uchun ajratilgan 12 soxit yer maydonining 6 soxitini fuqaro X.ga uy-joy quish uchun sotisha kelishib, 3 ming AQSH dollarini oлган vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Departament hamda IIBning Piskent tumani bo'limlari tomonidan o'tkazilgan xuddi shunday tezkor tadbirda fuqaro K.J. "B." bog'dorchilik va uzumchilik shirkatiga qarashli 18 soxit yer maydonini fuqaro R.A.ga 10 ming AQSH dollari evaziga rasmiylashtirib olib berishni va'da qilib, oldindan 2 ming AQSH dollarini oлган vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

Departament matbuot xizmati xabariga ko'ra, mazkur holatlar yuzasidan Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) va 28, 211-moddasi (pora berish) bilan jinoyat ishlari qo'zg'atilib, tergov harakatlari o'tkazilmoqda.

BMT ekspertlari 2000-yillardan boshlab 1,2 milliard kishining chuchuk suv tanqis bo'lgan mintaqalarda yashayotgani, XXI asning uchinchi o'n yilligi o'rtajariga borib, bu muammo yanada globalashishini ta'kidlay boshlashdi.

O'zbekistonda ham suv tanqisligi, ayniqsa, ichimlik suvi bilan bog'liq muammo yildan-yilga dolzarblashyapti.

Shu bois ham mutaxassislarimiz xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribalarini o'rganmoqdalar. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining Singapurga rasmiy tashrifi doirasida "yashil" texnologiyalar, ko'kalamzorlashtirish, kommunal xo'jalik sohalarida hamkorlik bo'yicha bir qator kelishuvlarga erishilganini ta'kidlash joiz.

Aytish kerakki, maydoni 640 km², aholisi 4,45 mln. bo'lgan Singapur o'tgan asrning 60-yillarda Afrikadagi qashshoq davlatlar qatorida tilga olingen bo'lsa-da, keyingi 50 yilda jadal o'sish sur'atlarini qayd etdi.

Vaholanki, o'sha paytda dunyo siyosatchilar ham, iqtisodchiyu, ekspertlari ham mustamlakachilik zulmi ostida uzoq vaqt jabr ko'rgan Singapurning yaqin kelajakda demografik tanglik va ishsizlik muammosiga duch kelishimi prognoz qilishgan edi. Ammo ushbu mamlakat juda qisqa muddatda Osiyo mintaqasi va dunyo siyosiy maydonidagi muhim "figura"lardan biriga aylana oldi.

Bugunga kelib esa hatto Singapurning global muammo sanagan suv resurslarini oqilona boshqarish, suv tejovchi texnologiyalar borasidagi tajribalarini butun dunyoga o'ziga xos namuna bo'lyapti. Bilamizki, bu shahar-mamlakat tabiiy yo'l bilan shakllanadigan suv resurslariga ega emas. Shuning uchun ham singapurliklar suv siyosatiga, svidan oqilona foydalanishga jiddiy e'tibor qaratishadi. Mutaxassislarining fikricha, Singapurning suvni tejamkor va oqilona ishlashiga bo'lgan intilishining muhim omillaridan biri – bu qo'shi Malayziyaning suv resurslariga bog'liqligi hisoblanadi. Ya'ni, mamlakat ehtiyojdagi suvning 40 foizi Malayziyadan keltiriladi. 30 foizi esa "NEWater" dasturi – chiqindi suvlarini tozalangan hisobidan olinadi. Dengiz suvini chuchuklashtirish 20, mahalliy suv havzalarini esa atigi 10 foizni tashkil etadi. Shu bois ham aholi tushungan holda suvni tejab, uni qayta

ishlashga alohida e'tibor qaratadi. Manbalarda qayd etilishicha, Singapur hukumati 2006-yilda mamlakatni suv resurslari sohasidagi global tadqiqot markaziga aylantirish maqsadida katta investitsiya kiritgan. 2008-yilda esa Singapur Milliy universiteti qoshidagi Li Kuan Yu nomidagi Davlat siyosati maktabida maxsus suv siyosati instituti tashkil etilgan. E'tiborli, bu davlatda 2008-yildan Singapur xalqaro suv haftaligi o'tkazilib, o'shandan beri ushbu tadbir jahon suv sanoati olamidagi muhim voqealar qatorida tilga olinadi.

Shu kunlarda ham suv ta'minoti bilan shug'llanadigan 70 dan ortiq mahalliy va xalqaro kompaniyalar faoliyat yuritib kelayotgan ushbu shahar – davlatga Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tashrifi davomida Singapurdagi 23 ta tadqiqot markazi 100 ga yaqin loyihalarni ustida ish olib borayotgani, bugungi kunda shahar aholisini suv

O'ZBEK OLIMLARI HAM YAQIN 20 YIL ICHIDA YURTIZMIZDA SUGVA BO'LGAN TALAB SEZILARLI OSHISHI VA MAVJUD SUV RESURSLARI KESKIN KAMAYISHINI TA'KIDLASHMOQA.

AVLAT XORIJITAJRIBASINI O'RGANYAPTI,



AMMO BIZ – FUQAROLAR BU AMALIYOTGA TAYYORMIZMI?

qiziqish bildirmoqdalar. Shuningdek, suv xo'jaligi obyektlarining qurilishi, ekspluatatsiya qilinishi hamda ularning xavfsizligini ta'minlashda yugori texnologiyalarni joriy qilish tajribasini o'rganish ham foydadan xoli bo'lmasligi ta'kidlanyapti. Xususan, Markazi Osiyo xalqaro Instituti bosh ilmiy xodimi Nozim Hasanov Singapurning yomg'ir suvlardan unumli foydalanish (bunda suv omborlarini yomg'ir suvlari bilan to'ldirish) amaliyotini o'rganib chiqish maqsadga muvofiglligini ta'kidlayapti.

Ma'lum bo'lishicha, Singapurdagi suv ta'minoti bilan shug'llanadigan kompaniyalar 2060-yilga qadar ikkita yangi qurilmani ishga tushirish natijasida chuchuk suv hajmini 2 baravarga, "NEWater" zavodlari quvvatini esa 3 baravarga oshirib, suv ta'minotini 80 foizga ko'tarishni rajalashtrimoqda. Eng muhim, bu muvaffaqiyatiga naqaqt innovatsiya yondashuvlar, balki shahar aholisining suvni tejashta bo'lgan jiddiy minosabati va shaxsий mas'uliyesti eng katta hissa bo'lib qo'shilishi aytlimoqda.

Prognoslarga qaraganda, 2050 yilga borib qurg'oqchilik dunyoning to'rtadan uch qismiga ta'sir qila boshlaydi.

O'zbek olimlari ham yaqin 20 yil ichida yurtizmida suvga bo'lgan talab sezilarli oshishi va mavjud suv resurslari keskin kamayishini ta'kidlashmoqda. Bu mamlakatda suv tanqisligi besh barobarga oshadi va O'zbekiston suv tanqisligi bo'yicha qizil hududlar qatoriga qo'shiladi, deganidir. Juhon banki ekspertlari tadqiqotlari ga ko'ra 2050-yilga borib Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizga kamayishi mumkin...

Tabiiyki, bunday ma'lumotlar har qanday aqli bor insонни hushyorlikka chaqiradi. Mamlakatimizda kelgusida iste'mol va qishloq xo'jaligi uchun ham zarur darajada suv zaxirasini yig'ish, uni tejashev va ichimlikka yaroqsiz suvni qayta ishlash texnologiyalarini xarid qilish orgali muammoga yechim izlayotgan olimlarimiz bu xususida kechayu kunduz bosh qotirayotgan bo'lishsada, masalaning ikkinchi tomonini, ta'bir joiz bo'lsa asosiy jihatini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. Chunki texnologiyalar suvni qancha ko'p tejamasin, iste'molchi bu suvdan samarali foydalanishga o'tmas ekan, yillik suv sarfi hajmi oshib boraveradi. Shu ma'noda ham Singapur tajribasini jiddiy o'rganish, eng muhim "suvin tejab ishlash" amaliyotini o'zlashtirishimiz kerak, nazarimda. Yo'qsa...

Suvsziklani tasavvur qilishga ham qo'rqasan kishi...

Mahbuba KARIMOVA,
«Milliy tiklanish»
muxbiri

**TADQIQOTCHILARING PROGOZLARIGA QARAGANDA
2050-YILGA BORIB QURG'OQCHILIK DUNYONING TO'RTDAN UCH QISMIGA TA'SIR QILA BOSHLAYDI.**

Viloyat yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan transport vositalarining harakat tezligini onlayn rejimda nazorat qilib borish uchun 5 dona qo'zg'almas fotoradar moslamalardan foydalanilmogda.

JANOB HOKIM, BU YOLG'ON XABAR EDI DENG!

Mana bir necha kundirki, Shahrabsab shahar hokimligining 5 ta radar sotib olish uchun 320 million so'm miqdorida mablag' ajratgani to'g'risidagi xabar matbuotimizda qizg'in muhokama qilinmoqda. Kecha "Ishonch" gazetasining bosh sahifasidan ayni shu haqdagi suratlari maqola o'rinn oldi. Nufuzli nashrimizning muammoli masalaga bu qadar e'tibori esa aholining e'tirozlar bejiz emasligini anglatadi, albatta.

Ijtimoiy tarmoqda qayd etilishicha, hatto shahar II Brning xatida ushbu mablag' bir oya qolmay oqlanishi ham asoslab berilgan.

Shahrabsab shahar hokimi A.Sulaymonov 16-fevral kuni «Shahrabsab shahar mahalliy budgetining 2023-yil boshidagi erkin qoldiq mablag'larini hisobidan mablag' ajratish to'g'risidagi qarorni imzoladi», deyiladi xabarda.

Unga ko'ra, «Yashil makon» umumimilliy loyihasi doirasida Shahrabsab shahrida manzarali daraxt hamda buta ko'chatlari xaridi uchun 170 million so'm, shahar markazida o'rnatiladigan «Yangi yil» archasi bezaklari hamda ko'chalarni obodonlashtirish, bayramona rangli yorug'lilik chiroqlari bilan ko'kalamorlashtirish va bezash uchun 180 million so'm, markaziy ko'chalarda transport vositalarining

harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida tezlikni qayd etuvchi 1 dona fotoradar qurilmasi va 4 dona onlayn radar maketi xaridi uchun 320 million so'm ajratilgan.

Ushbu xarajatlarga asos sifatida keltirilgan xatlar orasida Shahrabsab shahar II B rahbari B.Mirzayev tomonidan o'tgan yil 4-noyabr kuni imzolangan xat ham bor.

E'tiborli, aynan ushbu xatda radarlar yordamida jinoyatçilik va qoidabuzarliklarni oldini olish emas, balki daromad vositasi ekanligiga urg'u berilgan.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi «Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va olim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-190-sonli qarorning 4-bandiga asosan Tuman (shahar) hokimliklariga o'z hududlaridagi avtomobil yo'llarida yo'l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi va maxsus avtomatlashtirilgan foto va video dasturiy texnik vositalarni o'rnatish huquqi beriladi. Mazkur dasturiy-texnik vositalar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun jarima summasining 30 foizi bevosita tuman(shahar mahalliy budgetiga yo'naltiriladi hamda ushbu mablag'lar yo'l harakatini raqamlashtirish, yo'l infratzilmasini rivojlantrish, shuningdek, yo'l-patru xizmati xodimlarining qo'shimcha shatlarini kiritishga sarflanadi, deb ko'satish o'tilgan deyiladi xat debechasida.

Xatdan ko'rinadiki, viloyat yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan transport vositalarining harakat tezligini onlayn

rejimda nazorat qilib borish uchun 5 dona qo'zg'almas fotoradar moslamalardan foydalaniilmogda.

Shuningdek, bu kameralardan qancha pul tushishi ham hisob-kitob qilib berilgan va unda bir dona radardan bir kunda o'tacha 45 million, 1 oyda 1 milliard 350 million mablag' tushishi, hokimiyat ham ularning har biridan 464 million so'm mablag' ishlab olishiga ishora qilingan. Demak, to'rtta yangi radarli kameralardan bir oyda o'tacha 5 milliardga yaqin jarima pullari kelib tushadi.

«Hisob-kitoblarga ko'ra, bir dona tezlik o'lchash jamfarsi yordamida bir kunda o'tacha 150 ta qoidabuzarlik aniqlansa, O'zbekiston Respublikasi MJTKning 128-moddasi 1-qismida bu kabi huquqbuzarliklar uchun 300000 so'm jarima belgilansa, bir kunda 45 million so'm, 1 oyda 1 mld. 350 mln. so'mni tashkil etishini va PQ-190-sonli qaror talabari bo'yicha undirilgan jarimaning 30 foiz bevosita shahar (tuman) mahalliy budgetiga yo'naltirilganligini hisobga olsak taxminan bir oyda 464 mln. 300 ming so'm pul mablag'larini mahalliy hokimiyatlar hisobraqamiga kelib tushishi, qo'zg'almas fotoradar qurilmasini sotib olish uchun ketadigan mablag' uzog'i bilan 1 oy ichida qoplanishi mumkin. Bu biringa iqtisodiy foya jarayonini yuzaga keltirish bilan bir qatorda sodir etilishi mumkin bo'lgan og'ir turdag'i fuqarolarning o'limi bilan bog'liq bo'lgan yo'l-transport hodisalarining oldini olishga xizmat qilib, har oyda mahalliy hokimiyatlar hisob raqamiga 464 mln. 300 ming so'm pul mablag'larini kelib tushadi».

Jurnalistlar yoki ijtimoiy tarmoqdagilarning e'tirozi asosan yuqoridagi xatda qancha mablag' tushishi haqida raqamlar keltirilgani holda, bu radarlar tufayli qoidabuzarliklarni qancha kamaytirish haqida fikr yuritilmaganidadir. Kameralarini o'rnatishdan asosiy maqsad ham iqtisodiy foya ekanida. Hokimiyat va ichki ishlar organlarini jarimalardan tushadigan mablag'ga ko'z tikib o'tirishi qanchalar to'g'ri? Aslida, hokimlik vazifasi yo'llarni soz saqlash, aholi uchun imkon qadar qulay sharoitlar yaratish emasmi? Bu «foydal» g'oyani shahar deputatlari ham ortiqcha e'tirosiz qabul qilib qo'ya qolganlar.

Eng yomoni, hokimlikka y u b o r i l g a n x a t d a Shahrabsabzagi abgor yo'llarni

yaxshilash, aynan shunday muammolarni hal etish emas, aksincha, bunday «qulay muhit»dan foydalaniib qolish maqsadi mujassam ekan kishini o'ylantirib qo'yadi.

Xo'sh, xalq saylagan deputatlar qayqqo qaradilar bunday qaror qabul qilinayotganida? Saylovlarning paytida ko'kragini kerib, deputatlik mandatini qo'iga kiritgan dohiylarning ko'zi qayerda edi?

Qolgan siyosiy partiyalardan saylangan deputatlarni bilmadig'u, ammo «Milliy tiklanish»dan saylangan deputatlarimiz bu savolga tezda javob qaytarishlarini so'rab qolamiz.

Bekzod TO'RAYEV,
partiya Markaziy
kengashi bo'lim boshlig'i



Zebiniso AHMADOVA,
"Milliy tiklanish"
demokratik partiyasi
Buxoro viloyati kengashi
bosh mutaxassis



YOKI JADID ISLOHOTLARIDA TIL-IMLO MASALALARI



Abdurauf Fitrat nafaqat davlat va jamoat arbobi, balki adabiyot, tarix va fanning boshqa sohalarida ham samarali ijdil qilgan qomusiy olim hamdir. U tarixchi sifatida amirlik hududida sodir bo'layotgan voqe-hodisalarni qog'ozga tushiribgina qolmay, ularga faol siyosatchi, olim hamda davlat va jamoat arbobi sifatida o'z munosabatini bildirib kelgan. Xususan, mammakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan voqe-hodisalarni xolis baholab, o'zining ilmiy maqolalari, risola va asarlari keng tadqiq qilgan.

Abdurauf Fitratning til-imlo masalalari bo'yicha tashabbuslari ham diqqatga sazovordir. Ma'lumki, 1926-yilning 26-fevral - 5-martida Bokuda o'tkazilgan Butunittifoq birlinchi turkologlar qurultoyida turkiy xalqlar yozuvini arab imlosidan lotin imlosiga o'tkazish masalalari muhokama qilinib, bu haqda ijobji yarolar qabul qilingan. Qurultoya o'zbekistonlik turkolog olimlar, yozuvchi va shoirlar hafl qatnashganlar. Fitrat Toshkent shahrida tashkil qilgan "Chig'atoy gurungi" jamiyatiga 1919-1921-yillarda rahbarlik qilgan paytlardayloq turkiy xalqlar imlo va yozuvini isloq qilish, o'zbek adabiy tilining grammatisasi qoidalarni ishlab chiqishda faollik ko'ssatgan edi. U adabiyotshunosha va tilshunoslikka bag'ishlangan ko'plab ilmiy maqolalar va risolalarida ham ushuv mavzuya alohida e'tibor qaratgan. Shuning uchun ham u 1921-yilning yanvar oyida bo'lib o'tgan O'zbek til va imlo qurultoyida muhim rol o'ynaydi.

Fitrat turkiy xalqlar yozuvini lotinlashtirish masalasida ham katta ishlarni amalga oshirgan. Xususan, u O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'istonda bo'lgan maslakdoshlari Nazir To'raqulov, Shokir Rahimi, Ahmad Boytursun va boshqalar bilan birgalikda Boku qurultoyini tayyorlash va o'tkazishga munosib hissa qo'shadi.

Turkiy xalqlar, xususan, o'zbek yozuvini lotinlashtirish g'oyasi birlinchi marta 1921-yil yanvarda Toshkentda o'tkazilgan O'zbek tili va uning imlosiga bag'ishlangan qurultoya o'rta tashlangan bo'lsada, dashtlab ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi. Qurultoya bu haqda maxsus ma'ruza qilgan Abdurauf Fitrat o'z so'zida arab grafikasini bosmalash va qo'llash ishida bir qator qiyinchiliklar borligini ko'sratib o'tish bilan birga, uni soddalashtirish

zarurligini taklif qilib, arab grafikasini saqlab qolish zarurligini ta'kidaydi. Bu paytgacha Turkistonda arab imlosidagi o'zbek yozuvni 2 marta isloq qilingan edi. Oradan ko'p o'may u o'zbek yozuvini lotinlashtirish g'oyasining tarafdiri bo'di. Bu yo'lda u o'zi safodoshlari bilan timimsiz kurash olib borib, lotin imlosi tarafdirorlarining arab imlosi tarafdirorlari ustidan g'olib chiqishiga hissa qo'shadi. Turkiston ASSRda 1922-yilning oxiriga kelib imloni o'zgartirish masalasida muzokaralar yanada kuchayadi. Maorif va madaniyat xodimlarining qurultoyida bu masalada hatto keskin tortishuvlar yuz beradi. Bu qurultoya asosiy ma'ruzachi bo'lgan turkiy tillar bilimdoni professor Ye.D.Polivanov O'rta Osyo xalqlari uchun arab imlosidan voz kechish og'ir ekanligini aytsa-da, arab imlosini o'zgartirish tarafdiri bo'ladi. Keskin munozara va bahislardan so'ng Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi huzuridagi Davlat Ilmiy kengashi tomonidan qo'llab-quvvatlangan arab imlosini yengillashtirish va isloq qilish tarafdirorlari g'alaba qiladilar. Va, qurultoya 6 ta moddadan iborat qaror qabul qilinadi.

Avval qayd etilganidek, 1926-yil 26-fevral - 5-martda o'tgan Bokuda Butunittifoq I qurultoyida O'zbekiston SSR Maorif xalq komissari Rahim Oxunjon o'g'li Inog'omov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi (10 nafr vakil) ham faol qatnashadi. Qurultoya R.Inog'omovdan tasqhari, Abdurashid Abdujabborov (Samarqand shahri bu paytda O'zbekiston SSRning poxtayti bo'lgan), Mixail Gavrilov (Toshkent), Ashurali Zohiriy (Farg'ona), Elbek (Mashriq Yunusov'g'li, Toshkent), Shokirjon Rahimiy (Toshkent), Bekjon Rahmonov (Xiva, Xorazm), Ismoil Sadriy (Buxoro), Majid Usmonov (Samarqand), G'oz-o-Lim Yunusov (Samarqand)lar delegat sifatida qatnashadir. Biroq mashshur tilshunos va adabiyotshunos olim, shoir va yozuvchi, lotinlashtirish g'oyasining izchil tarafdiri bo'lgan Fitrat bu qurultoya qatnasha olmaydi. Fikrimizcha, bunga sovet hokimiyati imkoniyat bermaydi. O'sha qurultoya turkiy xalqlar yozuvini arab imlosidan lotin imlosiga o'tkazish masalasida ko'rib chiqiladi. Qurultoy faoliyatiga Ozarbayjon Yangi turk alfaviti (alfibosi) komiteti raisi Samad Agamali o'g'li rahbarlik qiladi. Jami 131 nafr delegat qatnashgan tadbirda faqat bir ayol bo'lib, u ozarbayjonlik Ayna Sultanova edi. Qurultoy ishida SSSRdagagi barcha turkiy xalqlarning vakillari, shuningdek, akademiklar V.V.Bartold va S.F.Oldenburg, Butunrossiya Sharqshunoslar ilmiy assotsiatsiyasi raisi M.Pavlovich, Dog'iston ASSR Xalq Komissarları Soveti raisi Jaloliddin Qo'rmasov, Leningrad, Moskva, Toshkent, Samarqand, Buxoro

va boshqa shaharlardan kelgan eng yaxshi mutaxassislar ishtiroti etadilar. Shuningdek, qurultoya xorij, ya'ni Turkiya (3 kishi), Germaniya (2 kishi), Avstriya va Vengriya (1 nafrdan vakil) dan ham mehnomonlar ishtiroti etadi. Qurultoy Prezidentiga 22 nafr kishi saylanib ular orasida S.Agamali o'g'lidan tasqhari V.Bartold, A.Boytursun (Qozog'iston), Galimjon Ibrahimov (Tatariston), M.F.Ko'prilizoda (Turkiya), R.Inog'omov (O'zbekiston), professor A.N.Samoylovich, B.Berdiev (Turkmaniston), U.Aliyev (Shimoliy

1929-yil 15-23-martda Samarqanda o'tgan O'zbekiston adiblari, imlochilar va yetakchi ziyolilar qurultoyida esa o'zbek yozuvini arab imlosi (grafikasi) dan lotin yozuviga o'tkazish haqida qaror qabul qilinadi. Bu qaror O'zbekiston SSR Maorif xalq komissarligi hay'ati tomonidan 1929-yilning 10-avgustda tasdiqlanadi.

SSR Xalq Komissarları Soveti va Butunittifoq Markaziy Ijroiya Komitetining 1929-yil 7-avgustdagidagi "Sovet Ittifoqi xalqlarini arab yozuvidan yangi lotin alifbosiga (alfaviti)ga o'tkazishga

" Fitrat turkiy xalqlar yozuvini lotinlashtirish masalasida ham katta ishlarni amalga oshirgan. Xususan, u O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'istonda bo'lgan maslakdoshlari Nazir To'raqulov, Shokir Rahimi, Ahmad Boytursun va boshgalar bilan birgalikda Boku qurultoyini tayyorlash va o'tkazishga munosib hissa qo'shadi.

Kavkaz va boshqalar bor edi. Qurultoya 17 ta majlis o'tkazilib, unda 40 ta ma'ruza va qo'shimcha ma'ruzalar eshitiladi. Qurultoya yozuv masalasida ikki xil yondashuv: lotin imlosiga o'tish tarafdirorlari (J.Qorgmasov) va arab imlosini isloq qilish tarafdirorlari (G'. Sharof) o'ttasida shiddati kurash ketadi. Bunda juda ko'philik ovoz bergan lotin imlosiga o'tish tarafdirorlari g'alaba qozonadilar. O'zbekistonidan qatnashgan Ashurali Zohiriy, G'oz-o-Lim Yunusov va ularning respublikadagi tarafdirorlari Qayum Ramazonov, Abdurahim Yo'lodoshev, Po'latxon Qayumov va boshqalar esa lotin imlosiga o'tishga keskin qarshiligi ko'rstatdilar. Fitrat domla ularning bu qarshiligini sindirishda o'zining ilmiy maqolalari va risolalari bilan faol xizmat qildi.

Turkiy xalqlar yozuvining arab imlosidan lotin imlosiga o'tkazish haqida qaror qabul qilinishi nafaqat Sovet Ittifoqidagi turkiy xalqlar hayotida, balki butun dunyodagi turkiy xalqlar uchun ham olamshumul voqebo'ldi. Boku qurultoyida ikki yildan keyin O'zbekiston SSRning poytaxti Samarqand shahrida Butunittifoq turkologlar II qurultoyini o'tkazishga kelishib olindilar. Biroq keyinchalik sovet hokimiyati Samarqandda bunday qurultoy o'tkazilishiga yo'l qo'yadi.

Qurultoya Ozarbayjonning lotin imlosiga o'tish tajribasidan boshqa turkiy xalqlar o'nakli olishi masalasiga alohida to'xtab o'tiladi. Buning uchun Butunittifoq yangi turkiy alfavitiga o'tish Markaziy qo'mitasi tashkil qilinadi. Bu qo'mitaning birlinchi plenumi Boku shahrida 1927-yili o'tkazilib, unda 34 ta harfdan iborat bir tizimga solingan yangi turkiy alifbo loyihasi qabul qilinadi.

to'g'risida"gi qarori bilan esa mamlakatda turkiy xalqlar yozuvini lotin imlosiga o'tkaziladi. 1930-yildan boshlab esa lotinlashtirishning yangi erasi boshlanadi. Turkiya Respublikasida esa 1928-yil lotin yozuviga o'tish boshlangan edi. Biroq sovet hokimiyati turkiy xalqlarini lotin yozuviga o'tib, til va imlo jitabidan o'zaro birlashishiga qarshi edi. Buning ustiga Turkiyada lotin yozuvini qabul qilishgach, sovetlar turkiy respublikalar uchun Turkiya bu jitabidan ham o'nak bo'lishini xohlamas edi. Shuning uchun ham Sovet hokimiyati SSSRda yashovchi barcha xalqlarini kirillitsa asosidagi yozuvga o'tkazishga kirishadi.

VKP(b) Markaziy Komiteti va SSSR Xalq Komissarları Sovetining 1939-yil boshlari qabul qilgan qaror qaror qo'ra, barcha respublikalarda kirillitsa o'tish kerak edi. 1940-yil 8-mayda O'zbekiston SSR Oliy Soveti III sessiyasida T.N.Qoriniyozovning ma'ruzasi bo'yicha lotin yozuvidan kirill (rus grafikasi) asosidagi o'zbek yozuviga o'tish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda 1940-yildan boshlab lotin yozuvidan voz kechildi hamda kirill imlosiga o'tildi. Bolsheviklar til va imlo siyosatini ham o'z maqsadlariga bo'yusdirib, undan yagona sovet xalqi yaratish, bu xalqi faqat rus tilida gapirish va yozishga majbur qilish, ya'ni ruslashtirish siyosatini avj oldirdilar. Tabiiyki, bunda taraqqiyat parvar islohotchi Fitratning xizmatlari ham unutilishga mahkum qilindi. Barcha turkiy respublikalar qatorida O'zbekistonda ham bu davorda millat xotirasini va xalq ma'naviyatiga kuchli zarba berildi. "Chig'atoy gurungi" tugatilib, uning a'zolari olyi jazoga hukm qilindilar.

MENING KIMLIGIMNI
EL BILSA BO'LDI

Dilieming rangini gul bilsa bo'ldi,
Mening kimligimni el bilsa bo'ldi.

Olis yulduzlarga sirrim aymiram,
Nolishimni tonggi yil bilsa bo'ldi.

Ucharga har qushdan par topinmadim,
Parvozlar hadisim dil bilsa bo'ldi.

Jaholat mehrobi toshin o'pmadim,
O'shal bag'ri toshim til bilsa bo'ldi.

Damlar shikvasiga uchma omon bo'l,
Fazlu kamolining el bilsa bo'ldi.

Ko'zlarining yashirgin mendan,
O'tib ketay yonigandan befarq,
O'tib ketay yonigandan bedard,
Ko'zlarining yashirgin mendan.
Borligimni payqama, mayli,
Burchaklarda, mayli, qayrilma,
Meni deb tinchingdan ayrılma,
Borligimni payqama, mayli.
Nomim bo'lsa qalbingda agar,
Otib tashla, mayli, turproqqa.
...Har kuni o't shu yo'lni toptab,
Nomim bo'lsa qalbingda agar.

UMR O'TAR, VAQT O'TAR

Umr o'tar, vaqt o'tar,
Xonlar o'tar, taxt o'tar,
Omad o'tar, baxt o'tar,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan
Sening yurishlaring, sening kulishlaring.
Bahorda bog' na go'zal,
Qor tuşsha tog' na go'zal,
Bu yoshlik chog' na go'zal,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan
So'zsiz qarashlaring, holim so'rashlaring.
Oy chiqar goh zaholi,
Do'star ko'pdir safoli,
Hayot shundan safoli,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan
Sokin so'zlashlaring, pinhon izlashlaring.
Umr – yo'l, qayrilish ko'p,
Uchrashish, ayrlil qo'p,
Unutish, aytish ko'p,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan
O'sha kulishlaring, o'sha kelishlaring...

FIRUZA

Kelmading.
Qushlar ko'chib ketdi qoshimdan,
Tushlar cho'chib ketdi yoshimdan,
Hushlar uchib ketdi boshimdan,
Kelmading.
Xazonlar to'p bo'ldi yillab men uchun,
Osonlar yo'q bo'ldi yillab men uchun,
Armonlar ko'p bo'ldi yillab men uchun,
Kelmading.
G'amlarning bariga to'zdim – chidadim,
Namlarining bahrida suzdim – chidadim,
Damlarning shahididan o'zdim – chidadim,
Kelmading.
Kunlarim hijronga o'dek yoqqanda,
Ruhim oti qonga cho'g'dek botganda,
So'nggi o'qni jonga o'zim otganda,
Sen kelding uzr so'rab...
Sen kelding nechun?!

ESHIGINGDAN O'TAMAN...

Kuz yosya ham yo'llarga xazon,
Qor ko'msa ham borliqni butun,
Ko'klam kelib, ursa ham xandon,
Eshigingdan o'taman bir kun.
Sochlaringga tushsa hamki oq,
Peshanhangni bossa ham ajin,
Kirganda ham gavdangga titroq,
Eshigingdan o'taman bir kun.
Mayli, shunda tanimasang ham,
Yoki desang ko'rmayin turqin,
Yoshim yutib, boshim qilib xam,
Eshigingdan o'taman bir kun.
Meni demay yumsang ham ko'zing,
Xonang qolsa zulmatga tutqun,
Xotirangga sham bo'lib o'zim,



Eshigingdan o'taman bir kun.
Vaqtim etib chiqsa bu joniim,
Dardlarimga yasalsa yakun,
Bu dunyonni tark etar onim
Eshigingdan o'taman bir kun.

"SENI YAXSHI KO'RAMAN"
TURKUMIDAN

Ko'p kezma daraxtzor bog'lar ichinda,
Daraxtlar dil do'sting bo'lolmas sening,
Chorlasang kelolmas, yonib qucholmas,
Sen faqat menin bo'l,
meniki,
mening.
Ko'p qolma jarang suv buloq bo'yinda,
Buloq ham dil do'sting bo'lolmas sening,
Qaynashim chashmadan teran joydandir,
Sen faqat menin bo'l,
meniki,
mening.
Ko'p titma muhabbat kitoblarini,
Kitoblar dil do'sting bo'lolmas sening,
Bu ishqning tarixi menin qalbimda,
Sen faqat menin bo'l,
meniki,
mening.

Ochil, ey gul, gul vaqtin bo'ldi,
Uyg'on, ey dil, dil vaqtin bo'ldi.
Yetar ming bir kecha ertaga,
Tong sirlarin bil, vaqtin bo'ldi.
O'z haqqini bilmagan quldir,
Shukr etgan ham qul, vaqtin bo'ldi.
Noming aziz, o'zingga bek bo'l.
El bo'l endi, el vaqtin bo'ldi.
Ogoh etar soatsiz qismat,
Harakating qil, vaqtin bo'ldi.
Tilni qutqar tillar bandidan,
Tilga kirgin, til vaqtin bo'ldi.
O'zbekiston, falak burjiga
Yuragangni il, vaqtin bo'ldi.

O'rtamizda birgina olma –
Olam ichra yumaloq ilinj.
O'rtamizda birgina olma –
Balki g'am u yo balki sevinch.
O'rtamizda birgana olma,
Yarmi qizil, yarmi och-yashil.
Hayo tug'yonidan qizil u,
U sog'inchning ramzidir asil.

O'rtamizda birgina olma,
Barmoq uchi tegsa tovlalar,
Alvon iffati, yashil tashnalik
Bir senga, bir menga dovlanlar.
O'rtamizda birgina olma,
Gard tegmagan, biram pokiza.
Hozircha u rangin bir havas,
Lab tegsa boshlanar mo'jiza...

Yaratganga shukur, sen yana kelding,
Hamma qonunlarning o'zgardi kuchi.
Men senga uzundan uzun ot qo'ydim:
"Ey, eski dardlarni yangilatuvchi!"
Barmoqlar barmoqlar uchini sezdi,
Ko'ngil bir ilohning kuchini sezdi,
Yurak allanening o'chini sezdi,
"Ey, uzoq yo'llarni yaqinlatuvchi!"
Yana ikki ko'zdan sirqildi namlar,
Billurni yuvudilar pokiza g'amarlar.
Qani ul Sir, Amu mavj ular damlar,
Ey, sen dengiz tubin dolgalatuvchi?!
Asli, qayda bo'lsang, men ko'ngli to'qman,
Kunchiqarim ishqtsir, nur o'chsa – yo'qman,
Bilaman, kimadir juda suykuman,
Ey sen, xotirani poklantruvchi!
Kim aytdi, yo'l anchu o'tildi deya,
Kelgan ketdi, kutgan kutildi deya,
Shodman – yana menga duch bo'ldi deya,
Ishqi omonlarni yashartuvchi!
Yaratganga shukur, sen yana kelding,
Hamma qonunlarning o'zgardi kuchi.
Senga men uzundan uzun ot qo'ydim:
"Ey, ko'hna dardlarni yangilatuvchi!"

Ketishim shart edi. Na iloj, ketdim,
yo'g'izlik q'a'rida qoldirib seni.
Shu ma'yus ko'zlarja jo bo'lar endi
tun degan azobning bo'y va eni.
Xush damlar hamdaming – ko'zgu bu kecha
tikka turgan ko'leldi yutishga tayyor.
Bir paytlar baxtingdon shahodat bergan
yulduzlar bu oqshom olis ya bekor.
Oq yostiqqa boshni g'amgin bosasan,
oqlikda ilmjsiz to'l'ganar gavda.
Sochlaring yuzingga aylana tortar,
tutilgan quyoshek qora, bezovta.
Soat birmi-ikki.

Turib yurasan
yostiq sezmasin deb qalb sanchig'ini.
Kulib, jim quchasan haligina men
o'tirgan kursining suyanchig'ini.
Ko'nglim, o'zingdan ko'r: endi hech timmay
ta'qib etar seni ul ma'yus nigoq —
ayolni tun bilan yolg'iz qoldirmoq
gunohlar ichida eng ogir gunoh!

TO'RTLIKLAR

Tong otdi, olamda ming rasm ko'rdim,
Mehrii ko'zlarini pok, ma'sum ko'rdim.
Hech kim zahar sepi – bol yiqqan emas,
Gul kirg'an uylarda tabassum ko'rdim.

Ey zot, xanjar bilan sen dam talashma,
Olam uyindasan, olam talashma,
Mening o'z dardimadir elimning dardi,
O'z darding bo'lmasa qalam talashma.

Birlik – ko'ngil bilan gulning birligi,
Birlik – vijdon bilan tilning birligi.
Birlik – to'qson ikki boqli o'zbekning –
Ertadan umidvor elning birligi.

Taning hech timmasin o'rangan ishdan,
Ko'ngling – o'zi suygan, o'rangan ishdan,
Aqling elab tursin bori olamni,
Shunda umring tinmas yangilanishdan.

Olam ko'zgusida ming sinar yog'du,
O'zimnikni emas, hatto tush, uyqu...
Bu hurlarga tartib kim berar ekan,
Qachon bir idishga tushar bor og'uzi?

Shimolda biz yozdan xazonga tushdik.
Bu – janub. Yana "yo ramozon!" ga tushdik.
G'arbg'a ketdik – tubsiz qozonga tushdik.
Sharqqa yurdik, yana ozonga tushdik.

Dehqon o'z xirmonin ko'rmasin hech kam,
Do'star yig'ilsinlar erta ham, kech ham.
O'z yer, o'z joyida yashasin elli,
O'z erkin boshqadan so'ramay hech ham!

– 2024-yildan boshlab tibbiy ma'lumotnomalar qog'oz shaklida talab qilinmaydi, degan xabar tarqalyapti. Agar shunday tartib joriy etilsa, odamlarga rosa yengillik bo'lardi. Aytinchchi, ushbu xabarning huquqiy asosi bormi?

Feruza Hikmatova,
Shayxontohur tumani
Nizomiy nomidagi
Pedagogika universiteti
talabasi

– Prezident Shavkat Mirziyoyevning “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishiga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi jamoatchilik muhokamasiqa qo'yilgan Farmoni loyihasida aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yaqinlashtirish va uni sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, bemorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish choralar belgilab qo'yildi. Shuningdek, hujjatda vaqtinchala mehnatga layoqatsizlik varaqalari va boshqa tibbiy ma'lumotnomalar berilishi ham bosqichma-bosqich elektron shaklga o'tkazilishi ta'kidlandi. Demak, mazkur Farmon imzolansa, 2024-yil 1-yanvardan boshlab tibbiy ma'lumotnomalar qog'oz shaklda talab qilinmaydigan bo'ladi.

– 2024-yildan boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun bepul ovqatlanish yo'lg'a qo'yilishi haqida eshitdim. Shu to'g'rimi? Parizoda Jumanazarova, Yangiyo'l tumani, o'qituvchi

Xabaringiz bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishiga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi farmoni loyihasi umumxaqli muhokamasiqa qo'yildi.

Unga ko'ra, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab barcha viloyatlar va Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash yo'lg'a qo'yiladi.

Ma'lumot uchun, ushbu hujjat loyihasi 22-fevralga qadar muhokamada bo'ladi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi axborot xizmati



– Ko'p kinolarda samolyot qo'nishi bilan qarsak chalib, uchuvchilarni olqishlash holatlarini ko'raman. Bu odat qachon paydo bo'lgan va buning ma'nosi nima? Eldor Yusupov, Buxoro viloyati

Olot tumani

– Ma'lumotlarga ko'ra, fuqarolik aviatsiyasida tarixiy tajribasiga ega bo'lgan AQSHning “Panam” aviakompaniyasi 1979-yilning aprel oyida Nyu-Yorkdan Tokioga qo'nishsiz parvozni amalga oshirgan. Shu yilning dekabrda esa Sidneydan San-Frantskogacha bo'lgan 11937 km.lik masofada yana bir qo'nishsiz parvoz amalga oshiradi. Bu o'sha davr uchun rekord natija edi. Shu sababli ham yo'lovchilar qarsak chalib yuborishadi. Bu an'anani 1988-yil may oyida 13 soatu 41 daqiqa samoda parvoz qilgan yo'lovchilar ham takrorlashadi. Buning zamirida sog'-salomat manzilga yetib kelishgani uchun Yaratganga shukrona va uchuvchilarga minnatdorlik ramzi mujassam. Bugunga kelib esa parvoz vaqtidan qat'iy nazar yo'lovchilar bu odatni amalga oshirishadi.

Temurbek Muhammadiyev,
mustaqil tadqiqotchi

– 3 nafar farzandim bor. Kenjam yaqinda 3 yoshga to'ldi. Endi hozirgacha olgan ikki yoshgacha bo'lgan bola nafaqasini ololmaymanmi? Umuman, bola nafaqasini tayinlash tartibi haqida kengroq ma'lumot bersangiz?

Husnora Shodiyeva Mirishkor tumani

– Bolalar nafaqasi 12 oy muddatiga tayinlanadi, biroq oilaning eng kichik yoxud yagona bolasi uchun tegishicha o'n sakiz yoshga to'lgan oyning oxirigacha to'lanadi. Agar bir oirlada tug'ilgan, farzandlikka olingen yoki vaysilikka qabul qilingan bolalar egizak bo'lsa, ularning biri yoshi 3 yoshgacha bo'lgan kichik bola, keyingilari mos ravishda ikkinchi, uchinchi yoki to'tinchi hisoblanadi.

«Yagona reyestro» AT organi kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalar (shaxslar) qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotnomalarni

taqdirm etmasdan, qonunchilik hujjatlarida ushbu tofadashlar uchun (shaxslar)ga belgilangan tartibda bepul yoki imtiyozli shartlarda ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlardan foydalanshga haqlidir.

Bolalar nafaqasi yoki moddiy yordam tayinlash uchun ariza zarus hujjatlar bilan birga bevosita ariza beruvchining doimiy yoki vaqtincha yashash manzilidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organini taqdirm etiladi va ro'yxtatga olinadi.

Advice.uz

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Ravshan MAHMUDOV,
Mahbuba KARIMOVA
NASIR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YULDOSHEV
NAVBATCHI:
Viloyatxon SHODIYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Gazeta «Sharp» nashriyoti matbasasi aktsiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru /
mtiklanish@mail.ru

ISSN 2010-7714

1955 2010-7714

– Lotus choyning foydali xususiyatlari haqida ma'lumot o'qib qoldim. Bu mahsulot O'zbekistonda ham yetishtiriladi?

Gulsun Qilicheva,
Qarshi shahri

– O'simlikshunos olimlarning ta'kidlashicha, lotus naqaqt estetik zavq bag'ishlaydi, balki juda foydali va daromadli o'simlikdir. Osyo mamlakatlari aholisuni asosan sabzavot sifatida ishlataladi. Uning ildizlari qaynatiladi, qovuriladi, tuzlanadi yoki xom holatda iste'mol qilinadi. Lotusdan kraxmal, un va yog' olinadi. Qushqo'nmas o'rniya barglari ishlataliladi, urug'lardan shirinliklar hatto marmelad tayyorlasa ham bo'ladi. Bundan tashqari, bu o'simlik tibbiyot sohasida ham keng qo'llaniladi. Lotus choyi butun tanani tozalashga yordam beradi, kuchlanish va charchoqni ketkazadi. Zararli toksinlarni olib tashlaydi va eng muhim, immunitet tizimini mustahkmailaydi, ortiqcha kaloriyalarni nazorat qiladi va metabolizmni oshiradi.

20 yildan beri Toshkent viloyatinining Yangiyo'l tumanidagi Gulbahor qishlog'ida yashab kelayotgan aslida xitoylik bo'lgan Shuli Xe oиласи bilan yong'oq lotusini yetishtiradi.

Garchi mahalliy iglimish ushbu o'simlikni yetishtirish uchun xavfli bo'lsada, bu oila O'zbekistondagi lotus yetishtirish borasidagi ilk tajribani amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi, deyish mumkin.

O'ZFA Genetika va o'simlik eksperimental biologiyasi instituti matbuot xizmati

– Hozirda 8 oylik homiladorman. Bo'lajak farzandimiz uchun hozirdan kerakli kiyim va turli buyumlar olmoqchi edik. Ammo sizlarga mumkin emas deyishiyapti, bu noto'g'ri tushuncha emasmi?

Fazilat Arslanova,
G'ijduvon tumani

– Bunday qarash, ya'ni “hal tug'ilmagan bolaga kiyim-kechak olib bo'lmaydi” degan tushuncha xatodir. Chunki “har bir ishlar niyatga ko'radir” degan mazmunda hadis bor. Olaversa, dinimizda shumlanish yo'q. Shunday ekan bema'lola yaxshi niyatlar bilan tug'ilajak farzandiningizga kiyim-kechak olishingiz mumkin.

@Shayx_Hazrat

O'zingizni qiziqitirgan savollarga javob topolmayapsizmi? Bizning quyidagi telegram manzilimizga yo'llang, bizning mutaxassislar savollaringizga javob berishadi.

99 443-05-86